



DO‘STONA MUNOSABATLAR YANADA KENGAYMOQDA

2-sahifa ▶▶

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2022-yil 25-noyabr, №47 (3006)

YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON AZIZ

VATANPARVAR

www.mv-vatanparvar.uz IJTIMOY-SIYOSIY, MA’NAVIY-MA’RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

TINCHLIKNI SAQLAYDI SERGAK O‘G‘LONLAR



ILMGA BAXSHIDA UMR

8-sahifa ▶▶



PARFIYA VA RIM O‘RTASIDAGI MASHHUR JANG

9-sahifa ▶▶

@ vatanparvar-bt@uamail.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

10

VATAN HIMOYASI
ISHONCHLI
QO‘LLARDA!

18

ARMIYA
SPORTCHISI
JAHON CHEMPIONI!

21

UCH
BOSQICHLI
TAYYORGARLIK

Tahririyat
haqida
ma'lumot



Xalqaro hamkorlik



DO'STONA MUNOSABATLAR

Bugungi kunda O'zbekiston qardosh mamlakatlar armiyalari bilan mudofaa sohasida kadrlar yetishtirib chiqarish borasida mustahkam hamkorlik aloqalarini o'rnatib kelmoqda. Xususan, qo'shni mamlakat harbiylarining yurtimizdagi nufuzli oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgani fikrimizga dalildir.

YANADA KENGAYMOQDA



polkovnik Z. Bozorboyev hamrohlik qildi.

Dastlab delegatsiya vakillariga Qurolli Kuchlar akademiyasida moddiy-texnik ta'minot mutaxassislarini tayyorlash jarayoni bo'yicha tayyorlangan taqdimotlar namoyish etildi. Shundan so'ng qardosh millat vakillari akademiya infratuzilmasi, ta'lim jarayonlari va o'quv-moddiy bazalari bilan yaqindan tanishdi.

Mehmonlar yetakchi oliy harbiy ta'lim muassasasida harbiy xizmatchilarning kasbiy professional mahoratini takomillashtirishga qaratilgan moddiy baza, kursantlar uchun yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlar, ijtimoiy va jangovar tayyorgarlik obyektlari, shuningdek, akademiya muzeyini alohida e'tirof etdi.

Mazkur tashrif davomida qardosh xalqlarning birdamligi, ikki davlat mudofaa idoralari o'rtasidagi hamkorlik masalalarining joriy holati hamda istiqbollari, ularni yanada mustahkamlash borasida fikr almashildi.

Shuningdek, Qirg'iziston harbiy delegatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi markaziy moddiy-texnik ta'minot bazasi hamda Markaziy harbiy klinik hospital faoliyati bilan ham tanishdi.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"



Mazkur hamkorlik doirasida Qirg'iziston harbiy delegatsiyasi yurtimizga tashrif buyurib, Qurolli Kuchlar akademiyasida bo'ldi.

Ularga mudofaa vazirining moddiy-texnik ta'minot bo'yicha o'rinbosari

Inson qadri uchun



MUAMMOLARGA

Bugungi kunda har qanday tashkilot faoliyatiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri xalqqa xizmat qilish va aholi vakillarini rozi qilishdan iborat. Ularning turmush darajasini yaxshilash, hayotida uchrayotgan muammolarni bartaraf etish yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy bo'g'iniga aylangan. Bu borada davlat hokimiyati organlari tomonidan tashkil etilayotgan sayyor qabullar o'zining ijobiy samarasini berib, murojaatlarni tinglash, muammolarni ijobiy hal qilishga xizmat qilyapti.

IJOBII YECHIM

Mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari polkovnik Hamdam Qarshiyevning navbatdagi fuqarolar qabuli kuni ochiq va shaffof tarzda o'tdi. O'z yechimini kutayotgan muammolarni ijobiy hal etish maqsadida ushbu tadbirda vazirlikning mas'ul ofitserlari, uy-joydan foydalanish, tibbiy ta'minot, harbiy xizmatchilarning oilalari bilan ishlash yo'nalishidagi mutasaddilar ishtirok etdi.

– Yoshim 24 da, – deydi navoiylik Nurmuhammad Barakayev. – Jismoniy tayyorgarlikdan natijalarim a'lo. Favqulodda vaziyatlar vazirligi tasarrufidagi harbiy qismda muddatli harbiy xizmatni o'taganman. Ammo qiziqishim kuchliligi bois Mudofaa vazirligi tarkibida kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirish niyatidaman. Bugungi qabul jarayonida mudofaa vaziri o'rinbosaridan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga saralash tartibi va nomzodlarga qo'yiladigan talablar haqida batafsil ma'lumot oldim.

Murojaatlar mazmuni bilan tanishish chog'ida taqdirning og'ir sinovlariga duch kelib, kutilmagan qiyinchiliklar qarshisida nechog'li o'jiz va chorasiz qolish mumkinligini beixtiyor his qilasan kishi. Qabul jarayonida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan ellikka yaqin murojaatlardan aksariyati joyida ijobiy hal etildi. Qolganlari yuzasidan tegishli muddatlar belgilanib, hal etilishi uchun mas'ullarga vazifalar, fuqarolarga esa tegishli huquqiy maslahatlar berildi. Shuningdek, fuqarolar o'zlarini qiziqirgan savollarga mutaxassislardan javob oldi.

Leytenant Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"

Anjuman



YUTUQLAR E'TIROF ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining anjumanlar zalida "Mudofaa vazirligi harbiy tibbiyot mutaxassislari tomonidan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari hamda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar" mavzusida matbuot anjumani tashkil etildi.



III darajali serjant Olim BERDIYEV

Unda mudofaa vazirining axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi – matbuot kotibi polkovnik Otabek Yuldashev, Mudofaa vazirligi Tibbiy ta'minot boshqarmasi boshlig'i, tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, tibbiy xizmat polkovnigi Bahodir Abdulaxatov, Mudofaa vazirligi Tibbiy ta'minot boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari tibbiy xizmat polkovnigi Abdug'ani Yuldashev, Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik hospitali bosh otolaringologi, tibbiy xizmat polkovnigi Shuhrat Qo'chqorov

spiker sifatida ishtirok etdi. Anjumanda ta'kidlanganidek, harbiy xizmatchilarning salomatligi jangovar shaylikda muhim o'rin tutadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda mustaqilligimizning ilk yillaridanoq harbiy xizmat nufuzini yuksaltirish va Qurolli Kuchlarimiz jangovar shayligini oshirish yo'nalishida eng avvalo, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini yanada yaxshilashga katta e'tibor qaratildi. Bu borada dastlab harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari sog'lig'ini saqlash hamda

mustahkamlash, qo'shinlar tibbiy ta'minotini o'z vaqtida hamda sifatli tashkillashtirishga erishildi. Mudofaa vazirligida malakali harbiy shifokorlarni tayyorlash, ularning mahorati va tajribasini oshirish borasida keng miqyosli ishlar olib borildi. Islohotlar jarayonida bugungi kunga kelib Markaziy harbiy klinik hospitali hududida zamonaviy davolash-dagnostika binosi qurilib, yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy apparatlar bilan ta'minlandi va foydalanishga topshirildi. Nukus harbiy hospitalida davolash-dagnostika binosi rekonstruksiya qilinib, zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlandi. O'ndan ortiq harbiy qism tibbiyot punktlari yangidan barpo etildi. Harbiy-tibbiy muassasalarga 98 turdagi zamonaviy tibbiyot uskunalari sotib olindi. Ayni vaqtda esa Qurolli Kuchlar harbiy tibbiyot akademiyasi va ambulator-poliklinika markazi binolarini qurish ishlari hamda Termiz va Farg'ona harbiy hospitalarida qurilish, rekonstruksiya hamda kapital ta'mirlash ishlari davom etmoqda. Harbiy hospitalar faoliyatiga yuqori texnologiyalarni tatbiq etish natijasida joriy yilning 7-may kuni Markaziy harbiy klinik hospitalida ilk bor akademik V. Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy xirurgiya tibbiyot markazi mutaxassislari

bilan hamkorlikda "buyrakni ko'chirib o'tkazish amaliyoti" muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Shuningdek, gospital mutaxassislari tomonidan 2 nafar bemorda ishlab turgan yurakda aorta-koronar shuntlash yuqori texnologik jarrohlik amaliyoti o'tkazildi va bu amaliyot ham ijobiy natija berdi.

Sohada harbiy-tibbiy aloqalar ham yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, jumladan, tibbiy kadrlarning malakasi va amaliy ko'nikmalarini oshirish bo'yicha joriy yilda 237 nafar tibbiyot xodimi respublikamiz va xorijdagi (AQSH, Rossiya, Germaniya, Koreya kabi) tibbiyot markazlari hamda akademiyalarida tahsil oldi. Ayni vaqtda 4 nafar harbiy shifokor AQSHda malaka oshirmoqda. Xalqaro hamkorlik doirasida joriy yilning avgust oyida Markaziy harbiy klinik gospitalida 10 nafar turkiyalik, 2 nafar janubiy koreyalik, oktabr oyida 3 nafar rossiyalik, 2 nafar hindistonlik, noyabr oyida 3 nafar germaniyalik va 3 nafar hindistonlik tibbiyot mutaxassislari bilan birgalikda 400 ga yaqin yuqori texnologik jarrohlik amaliyoti o'tkazildi. Muvaffaqiyatli o'tkazilgan jarrohlik amaliyotlarini harbiy tibbiyotning eng katta yutug'i desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Anjumanda shu kabi o'zgarishlar va yangilanishlar tahlil qilindi. Erishilayotgan natijalar va harbiy tibbiyot xodimlarining yutuqlari e'tirof etildi.

Qizg'in o'tgan tadbirida ommaviy axborot vositalari vakillari ham faol ishtirok etdi. Ularning mavzu bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollariga soha xodimlari batafsil javob berdi.

Umuman olganda anjumanning munozara va savol-javoblarga boyligi unda ishtirok etgan soha mutaxassislarning o'z vazifasiga nechog'lik mas'uliyat bilan yondashishini ko'rsatdi.

Mayor
Gulnora HOJIMURODOVA

Forum

Qurolli Kuchlar akademiyasida O'zbekiston Qurolli Kuchlarida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tizimini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan forum o'tkazildi. Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Davlat bojxona qo'mitasi hamkorligida tashkil etilgan tadbirida O'zbekiston Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi a'zolari, harbiy okrug qo'shinlarida axloqiy-ruhiy ta'minotga mas'ul mutaxassislar, akademiya professor-o'qituvchilari, kursantlar va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.



Muallif suratga olgan

TIZIMNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LIDA

Mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari polkovnik Hamdam Qarshiyev kirish so'zida jahon va mintaqada axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning nechog'li dolzarb ahamiyat kasb etishini hayotiy misollar asosida ta'kidladi. Mudofaa vazirligi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi boshlig'i polkovnik Hasan Xalilov qo'shinlarda axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni takomillashtirish

bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, mavjud muammolar va ularning yechimi bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar xususida ma'lumot berdi.

Forumda republikamizning turli hududlaridan videokonferens-aloqa orqali ma'ruza qilgan ofitserlarning "Markaziy harbiy okrug harbiy qism va bo'linmalarida shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy barqarorligini mustahkamlash borasida qo'llanilayotgan usul va uslublar", "Qo'shinlarda jangovar

tayyorgarlik mashg'ulotlarini real jangovar vaziyatlarga yaqinlashtirilgan holda o'tkazish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar", "So'nggi yillarda qurolli mojaralarda qo'llanilayotgan axborot-psixologik ta'sirlar hamda undan himoyalashning zamonaviy modeli va texnologiyalari" mavzularidagi chiqishlari forum ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otdi.

Taqdimotlarda jahon va mintaqadagi harbiy-siyosiy

vaziyatning o'zgarish dinamikasi, rivojlangan davlatlar Qurolli Kuchlari shaxsiy tarkibining axloqiy-ruhiy holati, ilg'or tajribalari to'g'risida ma'lumot berildi. Tadbir so'ngida qizg'in muhokamalardan kelib chiqib, mavzu yuzasidan taklif va tavsiyalar o'rta tashlandi.

Leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"

Mardi maydonlar

“ENG
ILG‘ORBATALYON” - MUNOSIBLAR
SARALANMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimida batalyon taktik guruhlarining jangovar salohiyati va qobiliyatini yuksaltirish, bo‘linmalarining mo‘ljallanishi bo‘yicha jangovar vazifalarni bajarishga tayyorlash, shaxsiy tarkibning jangovar hamda ma‘naviy-ma‘rifiy tayyorgarlik mashg‘ulotlarida egallagan bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirish maqsadida joriy yildan boshlab qo‘shinlarda “Eng ilg‘or batalyon” ko‘rik-tanlovi o‘tkazilyapti. Mazkur ko‘rik-tanlov uch bosqichni o‘z ichiga olgan bo‘lib, birinchisi qo‘shilma miqyosida, ikkinchisi harbiy okrug va yakuniy bosqichi vazirlik miqyosida o‘tkazilishi belgilangan.



Batalyon shaxsiy tarkibining jangovar tayyorgarligi, jismoniy va ruhiy yuklamalarni sabot bilan yengishi, jangovar vazifalarni bajarishga shayligini tekshirish maqsadida Mudofaa vazirligi markaziy apparati ofitserlaridan iborat hay‘at a‘zolari mamlakatimiz hududi bo‘ylab joylashgan har bir jangovar bo‘linmadan o‘z hududidagi umumqo‘shin poligonlarida nizam va rahbariy

hujjatlar talablari asosida sinovlar qabul qilmoqda.

Ta‘kidlash joizki, Mudofaa vazirligi rahbariyati tomonidan yuqori bo‘g‘indagi harbiy bo‘linmalarga emas, balki quyi pog‘onadagi guruh, vzvod va batalyonlarga bo‘lgan alohida e‘tibor sabab bugun ushbu bo‘linmalarining ta‘minoti, jangovar tayyorgarligi hamda shayligi yuksalishiga erishilyapti. Batalyonlarda sog‘lom raqobat muhiti yanada shakllantirilib, bo‘linma komandirlarining liderlik

va boshqaruvchanlik qobiliyati yana yuksalmoqda.

Ko‘rik-tanlovda bo‘linmalarining saf ko‘rigi, qurol-aslaha va texnikalarning holati hamda saqlanishi, o‘quv-moddiy bazaning butligi, batalyonning jangovar vazifalarni bajarishga shayligi, bo‘linmaning jangovar hamda ma‘naviy-ma‘rifiy tayyorgarligi, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar, harbiy intizom hamda huquq-tartibot holati sinchkovlik bilan nazoratdan o‘tkazildi.





Musobaqada bo'linmalar "Yangiariq" umumqo'shin poligoniga jangovar va harbiy texnikalarda marsh yurishni amalga oshirib, yo'lda ehtimoliy dushman hujumlari, pistirma va boshqa nostandart holatlarning bo'ysunuvidagi kuch hamda vositalar bilan bartaraf etishdi.

Dala-o'quv maydoni hududida bo'linmalar tomonidan guruh tarkibida o'qotar va zirhli transportyor qurollaridan har xil holatlarda amaliy o'q otish mashqini bajarish,

taktik hamda topografik vazifalarni ado etish, texnikalarni temiryo'l platformalariga yuklash va tushurish, jismoniy tayyorgarlik me'yorlarini bajarish hamda mutaxassislik bo'yicha savollarga aniq javob berishi belgilangan edi. Amaliy mashg'ulotlar kunduzi va tungi sharoitlarda bajarilib, harbiy xizmatchilarning ko'nikmalari murakkab sinovlarda baholab borildi.

Shunday qilib yurt himoyachilari taktik, otish, ma'naviy-ma'rifiy, jismoniy tayyorgarliklardan amalda

ko'nikmalarini namoyon etishi orqali batalyonning jangovar shayligini ko'rsatib berdi.

Ko'rik-tanlov nizomida qayd etilganidek, bo'linmalar me'yorlarni bajararganlik uchun qo'shimcha rag'batlantiruvchi ballar bilan taqdirlanishi va aksincha, yig'ilgan ballardan mahrum bo'lishi ham mumkin. E'tiborlisi, ko'rik-tanlov nizomiga asosan, malaka toifasiga ega bo'lganlar, davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar hamda mamlakat,

Qurolli Kuchlar va Mudofaa vazirligi miqyosida o'tkazilgan musobaqa va bellashuvlarda yuqori natijalarga erishganlarga alohida qo'shimcha ballar qo'shilishi belgilangan.

Eslatib o'tamiz, ko'rik-tanlovda g'olib bo'lgan batalyon komandirlarini taqdirlash marosimi Vatan himoyachilari kuni bayramida o'tkaziladi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati**



Mulohaza

MADHIYALAR VATANPARVARLIKKA CHORLOVDIR

Madhiya bu shunchaki hayqiriq emas, u millatni tamsil etadigan ma'naviy belgidir. Har bir davlat o'zining madhiyasiga ega. Madhiyada o'sha mamlakatning qadriyatlarini, o'tmishi va buguni, xalqining orzu-umidlari aks etadi. Sportchilar dunyo arenasida shohsupaga ko'tarilarkan, mamlakat bayrog'i yuksakka ko'tarilib, madhiya yangraydi. Yurt madhiyasi yangrar ekan, inson bu qo'shiqqa befarq bo'la olmaydi.

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov so'zi, atoqli kompozitor Mutal (*Mutavakkil*) Burhonov musiqasi bilan yaratilgan madhiyamiz ham xalqimizning orzu-umidlarini ifoda etadi. Davlatimiz madhiyasi qabul qilinganiga bu yil 30 yil to'ladi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng avval bayroq, so'ng gerb va oxirida davlat madhiyasi tasdiqlangan. Bular davlat ramzlari. O'zbekiston Respublikasini dunyoda shu uch belgi orqali taniydi. Bizning madhiyamiz hali navqiron yoshda. Lekin dunyoda shunday gimnlar borki, ularning yaratilganiga asrlar bo'ldi.

Polsha va Fransiya davlatlarining madhiyalari boshqa gimnlar orasida ajralib turadi. Ular bir necha yuz yillar oldin yaratilgan bo'lib, hozirda ahamiyatini butkul yo'qotib bo'lgan tarixiy voqealar asosida yozilgan vatanparvarlik qo'shiqlaridir. Lekin bu

davlatlar madhiyalarini o'zgartirishmaydi. Negaki xalq shu so'zlarga o'rgangan.

Yaponiya davlati madhiyasi dunyodagi eng qisqa madhiyalardan biridir. Uning matni Xeyan davrida, X–XI asrlarda yozilgan. Dastlab mustaqil she'r sifatida bitilgan bo'lib, madhiya uchun mo'ljallanmagan. Oradan salkam 800 yil o'tib, 1880-yilda unga musiqa bastalanadi va madhiya sifatida qabul qilinadi. Chunki o'sha davrda Yaponiyada gimn yaratishga zarurat tug'iladi. Shundan so'ng ehtiyoj paydo bo'lgan paytlar ijro etib yurilganiga qaramay, u madhiya sifatida 1999-yilda qonuniy ravishda belgilab qo'yilgan. Yaponlar salkam ming yil oldin yozilgan vatanparvarlik madhiyasini hozir ham chin yurakdan kuylashadi. Ammo ba'zida madhiya atrofida bahs-munozaralar ham bo'lib turadi. Ayrim yaponiyaliklar monarxizmga qarshi e'tiqodi tufayli

uni ijro etishdan bosh tortishi yoki ijro etilganda o'zini eshitmaganga olishi mumkin. Chunki madhiyada yagona shohlik haqida so'z boradi.

Kanada madhiyasi dunyodagi eng bahsli gimn hisoblanadi. Ko'pgina mamlakatlarda madhiyaning mahalliy aholi gaplashadigan tillarda ikki yoki undan ortiq versiyalari mavjud. Masalan, Finlyandiyada gimn fin va shved tillarida kuylanadi. Lekin ulardagi matnning umumiy ma'nosi har doim bir xil. Ammo Kanadadagi fransuz va ingliz tilida kuylanadigan madhiyalar o'rtasida deyarli hech qanday umumiylik yo'q. Ingliz tilidagi gimnda Kanadani "haqiqiy shimol mamlakati" deb atashadi, fransuz tilidagi gimnda esa ko'proq gullar haqida kuylangan. Ingliz tilidagi matn mualliflari kelajakka ishonch bilan qarashadi, mamlakat qanday rivojlanib borayotganidan xursand bo'lishadi, fransuz tilidagi matn mualliflari esa ko'proq o'tmishni eslashadi va Kanadaning shonli tarixi bilan faxrlanishadi. Kanada madhiyasining mahalliy qabilalardan biri eskimoslar tilida yaratilgan versiyasi ham mavjud. 2018-yilda madhiyaning inglizcha versiyasi biroz tahrirlandi. Matndagi "barcha o'g'illaringiz" jumlasini "barchamiz"ga o'zgartirdi, chunki mamlakatda xotin-qizlar ham bor-ku!

Ba'zi mamlakatlarning madhiyalarida vahshiylikka chaqiriqlar ham uchrab turadi. Kamondan o'q uzishga, qilich chopishga, nayza uloqtirishga, yovni taslim qilishga chaqiriladi. Bu ko'proq nisbatan qadimiy madhiyalarga xos. Chunki madhiyada vatanparvarlik ruhi bo'lishi zarur. Qizig'i shundaki, Latviya va Daniya kabi mamlakatlarning madhiyalarida sevgi izhoridan boshqa hech narsa yo'q. Latviya madhiyasi 1920-yilda yozilgan va unda Xudodan raqs tushish baxti so'ralgan. Daniyaliklar esa o'z madhiyasida har qanday ekologik halokat yuz bersa ham Vatanni sevish va u bilan qolish qarori ta'kidlanadi.

Estoniya va Avstriya mamlakatlarining madhiyasida nekin kayfiyat tasvirlanadi. Hayotni zavq-shavq bilan o'tkazish, mehnat qilish, yaxshi taomlarni yeyish, a'lo kayfiyat bilan yashashga da'vat qilinadi.

Dunyoning eng uzun madhiyasi Gretsiya gimnidir. Yunonlar o'n to'qqizinchi asrning boshlarida yozilgan olti yuzi o'ttiz ikki misrali she'rni madhiyaga aylantirishgan. Tasavvur qiling, 632 satr! Bu noqulaylik tug'diravergach, axiri madhiya matni yigirma to'rt bandga (*to'qson olti misra*) qisqartirilgan. Rasmiy tadbirlarda asosan ozodlikni tarannum etuvchi dastlabki sakkiz misragina kuylanadi. Jumladan, matnda "Salom, mag'rur Ozodlik, Salom, Ellinlar sevgisi!" kabi jumlar uchraydi.

Chexiya madhiyasi 1918-yildan 1938-yilgacha nemischa versiyasiga ega bo'lgan. Mamlakatdagi nemislar ozchilik bo'lsa-da, ularning manfaatlari ahamiyatga molik edi. Ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyin Chexiyada barchasi tubdan o'zgaradi. Chexlar o'z madhiyasini yaratishadi. Gimn matni daniyaliklarnikidek sokin bo'lib, Vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat izhor etilgan.

Misr madhiyasi "Biladi, Biladi, Biladi" so'zlari bilan boshlanadi. Bu so'z "Vatan" degan ma'noni bildiradi. Xuddi shu so'zni Birlashgan Arab Amirliklari madhiyasida ham eshitish mumkin. Misr madhiyasi matni 1923-yilda yozilgan bo'lsa-da, Misrdagi murakkab siyosiy vaziyat tufayli 1979-yilga kelib rasman mamlakatning asosiy madhiyasiga aylangan.

Davlatimiz madhiyasi qabul qilinganiga 30 yil to'ldi. Navqiron madhiyamizda jonajon diyorimizga nisbatan ishlatilgan go'zal tashbehar, kelajakka yuksak ishonch va tarixga chuqur hurmat o'z ifodasini topgan.

Xurshid SEROBOV,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti ilmiy xodimi

Bitiruv

INTIQ KUTILGAN PALLALAR



Peshonasi yarqiragan bir guruh serjantlar va kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida tashkil qilingan ofitserlar tayyorlash kursini muvaffaqiyatli tamomlab, "leytenant" harbiy unvonini qabul qilib oldi.

Ba'zida "45 kun o'qib, ofitser bo'layapsizlar, biz bunga qadar 4 yil zahmat chekkanmiz" kabi iboralar quloqqa chalinadi. E'tiborli jihati, ular allaqachon fuqarolik hayotida bu

mashaqqat totini chekib qo'ygani. Xullas, Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklaridan yig'ilgan tinglovchilarning quvonchi zimmalariga tushgan ofitserlik mas'uliyati bilan qorishib ketgandi.

Necha yillar bu kunni kutgan ayrim bitiruvchilar o'zlarini tanishtirarkan beixtiyor "kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar" deb yuborganlari ham bo'ldi.

– O'n yildan buyon harbiy xizmatdaman. Bu yillar davomida ko'p ta'na-dashnomlar eshitishga to'g'ri keldi. Toshkent avtomobil yo'llari institutini (*hozirgi Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalashtirish, qurish va foydalanish instituti*) tamomlaganman. O'sha paytdagi kursdoshlarimning aksariyati

o'zlarining jamiyatdagi munosib o'rinlarini topib ketdi. Yashirmayman, gohida o'zim ham bir oz siqilib, yana ofitserlik orzusiga berildim. Mana, nihoyat orzum ushaldi. Intiq kutgan pallalarimiz yetib keldi, – deydi leytenant Mansur Ilimanov.

Sertifikatlarni tantanali topshirish marosimidan so'ng o'tkazilgan badiiy chiqishlarda bitiruvchilar andak hordiq chiqarib, xursandchilik qildi.

Kapitan Aziz NORQULOV

Qonun ustuvorligi

ISBOTLASH JARAYONIDA ICHKI ISHONCHNING O'RNI

Sudlarning zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifa muayyan toifadagi ishlar bo'yicha qonuniy asoslantirilgan va adolatli sud qarorlarini qabul qilish hisoblanadi. Isbotlash deb nomlanuvchi ushbu jarayonda har qanday sud ishi to'plangan dalil, hujjat va faktlarga huquqiy baho berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shu boisdan amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko'ra, to'plangan dalillarga ichki ishonchga asosan baho berish isbotlashda ishtirok etuvchi organlar mansabdor shaxslarning faoliyatida muhim o'rin tutadi.

Manbalarda berilgan ta'rifga ko'ra, ishonch shaxsga u yoki bu harakatni ongli ravishda bajarish, muayyan xulq-atvorni zarurat va maqsadga muvofiqlik nuqtayi nazardan tushunish orqali bajarish imkonini beradigan axloqiy faoliyatning ratsional asosini tashkil etib, muayyan shaxs uchun o'zi amal qilishni majburiy deb hisoblaydigan, kishi ongida tubdan joy olgan axloqiy tushunchalar, g'oyalari, prinsiplar majmuasi sanaladi. Yuridik adabiyotlarda isbotlash subyektlarining ichki ishonchi masalasi keng miqyosda tadqiq qilingan mavzu bo'lib, ayrim hollarda u o'zining qarama-qarshi fikr bildiruvchi tarafdorlariga ega bo'lgan. Bu yerda masalaning muammoli jihatini isbotlashda ichki ishonchni yuridik me'zonlar asosiga bo'ysundirish bilan bog'liq. Lekin shuni yodda tutish kerakki, ichki ishonch bu insonning har qanday xohishiga ko'ra, erkin paydo bo'ladigan ichki kechinmalari emas. Aksariyat tadqiqotchilarning olib borgan izlanishlari natijasida ichki ishonch qonunda belgilangan tartibda tekshirilgan dalillar bo'yicha xulosalarni aks ettirishi, ish bo'yicha yig'ilgan barcha dalillarni tahlil qilish va baholashga asoslangan bo'lishi, dalillarga ularning majmuasi, o'ziga xos xususiyati hamda ishga aloqadorligi bo'yicha baho berilishi shartligi haqida xulosa qilingan. Aslida ishonch insonga xos axloqiy tuyg'u hisoblanadi. Hayotda

har birimiz bir emas, bir necha marotaba o'zimiz tushib qolgan vaziyatlar, oldindan ko'ra bilmagan holatlar yuzasidan ichki ishonchimizga asoslanib qarorlar qabul qilganimizni yoki biror-bir rejani amalga oshirganimizni eslaymiz. Ana shunday vaziyatlar "shu narsa ko'nglimga kelgandi" yoki "xayolimdan o'tgan narsa sodir bo'ldi" deb o'ylaymiz. Bunda qabul qilgan qarorimiz oqibatda nimalarga olib kelgani muhim emas, muhimi ana shu ichki ishonchga bizni yetaklagan hissiyotlar majmuasidir. Xo'sh, bu hissiyotlar sudyani odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatida qanday ahamiyatga ega?

Ma'lumki, surishtiruv va tergov organlarining faoliyatida isbotlash hamda dalillar keltirish asosiy o'rin tutadi. Shu sababli ichki ishonch tushunchasi to'plangan dalillarni baholash bilan chambarchas bog'liq. Zero, sudyani ish faoliyatida ichki ishonch bu nafaqat uning shaxsiy tuyg'usi, balki uning ishidan yoki yanada kengroq aytganda majburiyatidan kutilgan natijaga yetaklovchi omil ham hisoblanadi. Sudya ichki ishonchi asosida muayyan bir ish yuzasidan qaror qabul qiladi hamda shaxsning harakatlari va vaziyatiga huquqiy baho beradi. Demak, sudyani ichki ishonchi aql-idrok bilan anglab bo'lmaydigan, intuitsiya yoki nazoratsiz hissiyot emas, aksincha, chuqur tahlil asosida yuzaga keladigan,

shaxsning aybli yoki aybsiz ekanligi haqidagi xulosasi sanaladi. Psixologik nuqtayi nazardan esa ishonch bu – xulosalarning to'g'riligiga shubhaning mavjud emasligi.

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligida sudya yoki protsessual qonunni qo'llovchi boshqa vakolatli shaxslarning ichki ishonchi nimalarda aks etishi aniq belgilab qo'yilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 95-moddasi 1-qismiga muvofiq, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ishdagi barcha holatlarni sinchkovlik bilan, to'la, har tomonlama va xolisona ko'rib chiqishga asoslangan holda qonunga hamda huquqiy ongga amal qilib o'zlarining ichki ishonchlari bo'yicha dalillarga baho beradilar. Har bir dalil ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchligi nuqtayi nazardan baholanishi lozim.

Yoki Jinoyat-protsessual kodeksining 409-moddasida, prokuror davlat ayblovini quvvatlar ekan, ushbu kodeksning O'zbekiston Respublikasi boshqa qonunlarining talablariga va ishning barcha holatlarini qarab chiqishga asoslangan o'z ishonchiga amal qilishi, sud muhokamasi natijasida prokuror sud tergov ma'lumotlari sudlanuvchining aybsizligidan dalolat beradi, degan ishonchga kelsa, u ayblovdan voz kechishi va voz kechish sabablarini sudga bayon qilishi shartligi belgilangan.

Ushbu qoida mazmunidan kelib chiqib aytish mumkin, ichki ishonch nafaqat sudyani, balki sud jarayonida davlat ayblovini qo'llab-quvvatlovchi muhim taraf – prokurorning ham mas'uliyati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 277-moddasiga ko'ra, organ (*mansabdor shaxs*) dalillarga ishning hamma holatlarini

har tomonlama, to'la va obyektiv jamlab tekshirishga asoslangan o'zining ichki ishonchi bilan qonunga amal qilgan holda baho beradi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi 73-moddasi 1-qismida esa sud dalillarga ishning barcha holatlarini jamlab, ularni sud majlisida qonunga amal qilgan holda har tomonlama, to'liq va xolis ko'rib chiqishga asoslangan o'z ichki ishonchiga ko'ra, baho berishi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi 74-moddasida bayon qilinishicha, sud dalillarga ishning barcha holatlarini jamlab, ularni sud majlisida qonunga amal qilgan holda har tomonlama, to'liq va xolis ko'rib chiqishga asoslangan o'z ichki ishonchi bo'yicha baho beradi.

Umuman olganda qonunchiligimizda bu haqda yana ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Lekin unutmash kerakki, har qanday qonunchilik normasini amaliyotda ko'rilayotgan ishlarga nisbatan o'z o'rnida va mos ravishda to'g'ri qo'llash, sudyani shaxsiy sifatleri, jumladan uning bilimi, saviyasi, tajribasi hamda shaxsiy fazilatleri bilan uzviy bog'liq. Chunki qadimgi manbalarda sudyani "gapiruvchi qonun" deb ta'riflangani bejizga emas.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkin, adolat tushunchasi jamiyatimizda e'zozlanar ekan, sudning eshigini "taqillatib" kelgan har bir insonning yuragida qo'rquv yoki ishonchsizlik emas, aksincha, shu joyda halol, pok, vijdonli va o'z ishining professional darajadagi ustasi bo'lgan sudya faoliyat yuritayotganiga ishonchi bo'lishi kerak. Ana shunda adolat, qonun ustuvorligi, albatta, qaror topadi.

U. SHOKIROV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy sudi sudyasi

Tanlov

"ENG ILG'OR MUTAXASSIS" LAR ANIQLANDI

Davlatimiz chegaralarini ishonchli himoya qilish va qo'riqlashda xizmat hayvonlari sarhadlarimiz posbonlarining eng yaqin ko'makdoshi sanaladi. Xususan, davlat chegara buzg'unchilari, davlat chegara rejim buzg'unchilari, davlat chegarasidan noqonuniy tarzda olib o'tiladigan tovar-moddiy boyliklari, narkotik va psixotrop moddalar hamda qurol-aslaha va o'q-dorilarni aniqlab, tezkorlik bilan qo'lga olishda xizmat hayvonlarining o'rni beqiyos.

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari miqyosida xizmat hayvonlari mutaxassislarining kasbiy mahoratlarini muntazam ravishda oshirib borish hamda eng ilg'or kinolog, chavandoz va veterinariya feldsherlarini aniqlash maqsadida har yili an'anaviy tarzda "Eng ilg'or mutaxassis" ko'rik-tanlovi o'tkaziladi. Tanlov shartlari nazariy va amaliy tarzda tashkil etilib, dastlab barcha ishtirokchilarning bilim va ko'nikmalari test sinovlari hamda og'zaki savol-javoblar orqali baholandi.

Shundan so'ng "Eng ilg'or chegara qo'riqlash vavodi xizmat itlari yo'riqchisi" yo'nalishi bo'yicha tanlov shartlariga start berilib, xizmat itlarining umumiy mashq kursi bo'yicha ko'nikmalari, buyum hididan uning egasini tez va to'g'ri aniqlay olishi, bir buyum hididan ikkinchisini topishi, 100x100m.li maydonda yashirilgan portlovchi modda, qurol-aslaha va yot


buyumlarni qidirib topish mahorati, hidli izdan chegara buzuvchisini qidirishi hamda qo'lga olishi, shuningdek, turli to'siqlardan o'tgan holda xizmat itlari yo'riqchisi oldiga qaytishdagi tezkorligi sinovdan o'tkazildi.

"Eng ilg'or chegara nazorati bo'linmasi xizmat itlari yo'riqchisi" yo'nalishida esa yuqoridagilar bilan bir qatorda xizmat itlarining avtotransport vositasi, yo'lovchi va yuk tashuvchi temiryo'l vagonlari, yo'lovchilarning qo'l yuklari, shuningdek, binolarda berkitilgan portlovchi, qurol-aslaha yoki giyohvand moddalarni qidirib topish qobiliyati tekshirildi.

Tanlovning yana bir yo'nalishi "Eng ilg'or chavandoz" yo'nalishi bo'lib, unda ishtirokchilar tomonidan xizmat otlarining maxsus anjomlari (*jugan, egar*)ni qisqa fursatlarda qismlarga ajratilishi va yig'ilishi, chavandozlarning yugurib ketayotgan ot ustida (*jigitovka, valjirovka kabi*) turli akrobatik va gimnastik mashqlarni to'g'ri

va xavfsiz bajara olishi, ot bilan to'siqlar osha yugurish, xizmat otini egarlash hamda egarni otdan ajratish qoidalarining to'g'ri bajarilishiga alohida e'tibor qaratildi.

Albatta, xizmat hayvonlarining salomatligini doimiy nazoratdan o'tkazish ham muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bois tanlov shartlaridan biri "Eng ilg'or veterinariya feldsheri" deya nomlanib, mazkur yo'nalishda soha



mutaxassislari xizmat hayvonlarining kasalligini aniqlagan holda to'g'ri tashxis qo'yish va davolash, xizmat itlari hamda otlaridan qon olish, kichik jarrohlik operatsiyalarini o'tkazish, veterinariya dori vositalarining tavsifi va qo'llash usullarini tushuntirib berish, shuningdek, xizmat hayvonlari turli xildagi jarohatlar olganida (*sinish, chiqish*) ularga birinchi veterinariya yordamini ko'rsatish kabi shartlar bo'yicha o'z bilim va ko'nikmalarini amalda namoyon etdi. Musobaqa davomida uzoq va qisqa masofaga yugurish hamda turnikda tortilish shartlari bo'yicha ham sinovlar o'tkazilib, qatnashchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi aniqlandi.

Yillar davomida egallangan bilim va malaka o'z so'zini aytib, "Eng ilg'or chegara qo'riqlash vavodi xizmat itlari yo'riqchisi" yo'nalishida kichik serjant A. G'ofurjonov, "Eng ilg'or chegara nazorati bo'linmasi xizmat itlari yo'riqchisi" yo'nalishida kichik serjant Sh. Abduvaliyev, "Eng ilg'or chavandoz" yo'nalishida kichik serjant A. Suyarov va "Eng ilg'or veterinariya feldsheri" yo'nalishida kichik serjant X. Ahmedovlar birinchi o'rinni egallab, maxsus diplom hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

Oramizdagi odamlar

Ko'cha chetida maktabga ketayotgan bolalarga havas bilan qarab turgan jajigina qizaloq sekingina qo'lidagi sumkasiga qarab qo'ydi va dadasiga yuzlanib, "Men ham maktabga boray, opamni maktabga olishdi-ku, meni ham olishadi", dedi ishonch bilan. Alijon aka ishga shoshilar ekan, Dilfuzaning bu gaplariga javoban "Obbo, ona qizim-ey, maktabga borish uchun yoshingiz yetishmaydi-da", dedi. "Yoshim kichkina bo'lsa ham, qo'limda sumkam bor-ku, meni ham maktabga olishsin, jon dadajon, ayting", dedi u otasiga yolvorib. Alijon aka qizining o'qishga bo'lgan intilishni bolalikda hammada bo'ladigan qiziqishga yo'ydi va uni bog'chaga tashlab qaytdi.



ILMGA BAXSHIDA UMR

Shu kuni u bog'chadan uyga qaytgach, onasining oldiga kelib, "Ayajon, siz ham ustozsiz-ku, ayting, meni ham maktabga olishsin", dedi yalinib. Manzuraxon opa qiziga bir qaradi-yu, "Mayli, aytaman", dedi. Tong otguncha Dilfuzaning ko'zlariga uyga kelmasi, opasi Muyassarxon o'qiydigan maktabga boradi.

Tong ham otdi. Manzuraxon opa qizining qo'lidan ushlab, maktab tomon boshladi. Boshlang'ich sinflar o'qiydigan binoga kirishda bo'ylari baland, chiroyli ayol bilan nimalarnidir gaplashdi. Bu ayol O'ktamxon opa bo'lib, Dilfuzaning birinchi ustoz edi. U Dilfuzaning qo'llaridan yetaklab, sinf tomon yurar ekan, Manzuraxon opa "Zeriksa yoki to'polon qilsa, yonimga chiqarib yuboring", dedi. O'qituvchi yangi o'quvchini sinfdagi birinchi partaga o'tkazib qo'ydi. Sinf bolalariga qaraganda yoshi va bo'yi kichikroq bo'lgani uchun Dilfuzaning oyoqlari yerga tegmas va atrofidagi bolalarga bir-bir qarab qo'yar edi. Muallim uning qo'lga ruchka berib, oldiga daftar qo'ydi va dars o'ta boshladi. Savod darsi Dilfuzaga juda yoqdi. U shu kuni darslar tamom bo'lgunicha sinfdan chiqmadi. Onasi kelib, "Qizim, uyga ketdik", demagunicha sinfxonada dars qilib o'tirdi.

Dilfuzaning o'qishga bo'lgan qiziqishini ko'rgan ota-onasi uni bog'chaga qaytarishmadi, aksincha, maktabda o'qishi uchun yaqindan yordam berishdi. Ehtimol, Dilfuzaning bugungi kunda olim ayol bo'lishi maktab partasidan boshlangandir.

Kunlar, yillar bir-birini quvib o'ta boshladi. Dilfuza maktabni a'lo baholarga tamomlab, Qo'qon shahridagi pedagogika texnikumiga o'qishga kirdi. "Nega oliy dargohga emas?" degan savol tug'iladi. Chunki u maktabni 16 yoshga to'lmasdan bitirgan edi. Dilfuza texnikumda o'zining odob-axloqi, a'lo o'qishi bilan ustozlar o'rtasida alohida hurmat qozondi. Texnikumni imtiyozli diplom bilan tugatgan qahramonimiz Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi bo'ldi. U talabalik kezarida "Boshlang'ich ta'lim", "Xalq ta'limi", "Saodat" jurnallarida va xorijiy nashrlarda ilmiy maqolalar chop ettirdi, "Afg'onistonda qolgan do'stim" nomli she'riy to'plami nashrdan chiqdi. Dilfuzadagi ilmga bo'lgan intilishni ko'rgan fakultet o'qituvchilari unga aspiranturada o'qishni maslahat berdi. U universitetni imtiyozli diplom bilan



tamomlab, aspiranturaga qabul qilingan yili O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasiga a'zo bo'ldi.

Pedagogika fanlari doktori, professor Rahimaxon Mavlonova va psixologiya fanlari doktori, professor Muhammad Davletshin unga chinakam ilm sirlarini o'rgatdi. Aspiranturaning ikkinchi bosqichidayoq nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan yosh olim pedagogik faoliyatini TDPU boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasida boshladi. Bir muddatdan so'ng ustoz Rahimaxon Mavlonova uni yoniga chaqirib, "Qani endi doktorlik dissertatsiyangni ham boshla", dedi. Universitetning doktoranturasini tamomlagach, yana kafedrada o'qituvchilik faoliyatini davom ettirdi. U oilada ota-onasi uchun sevimli farzand, o'z farzandlariga mehribon ona, tumush o'rtog'iga suyuqli yor, shogirdlarga esa talabchan ustozdir.

O'tgan yillar davomida Dilfuza Abdurahimova muallifligida "Pedagogika", "Ijtimoiy pedagogika", "Pedagogik mahorat", "Qiyosiy pedagogika" nomli o'quv qo'llanma va darsliklar yaratildi, 700 dan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar chop etildi. Uning rahbarligida bitiruv-malakaviy ishlar, magistrlik hamda nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Shogirdlar tayyorlash, darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishdagi mehnati uchun 2017-yilda "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

1994–2019-yillar davomida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida talaba hamda magistrantlariga pedagogika va psixologiya, pedagogik mahorat, ijtimoiy pedagogika, pedagogik diagnostika, qiyosiy pedagogika fanlaridan saboq bergan Dilfuza Abdurahimova 2019-yildan o'z pedagogik faoliyatini Qurolli Kuchlar akademiyasida davom ettirmoqda.

– Dilfuza Abdurahimova nafaqat ustoz, balki mehribon ona sifatida biz kursantlarning alohida mehrimizni

qozongan, – deydi Qurolli Kuchlar akademiyasi kursanti Dilshod Qurbonov. – Ustozimiz yangi mavzu boshlashdan oldin o'tilgan mavzuning asosiy tushunchalarini bizdan so'rab, o'zlashtirish darajamizni aniqlab oladi. Dars davomida har bir kursantga individual yondashib, fikrimizni to'liq eshitib, so'ng o'z mulohazalarini bayon etadi. Mashg'ulotlar jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanadi va kursantlarning mashg'ulotlarda faol ishtirok etishi uchun zamin yaratadi. Har bir mashg'ulot munozaraga, qizg'in bahsga aylanib ketadi. Bunday mashg'ulotlar harbiy pedagogik mahoratimizni oshirishga xizmat qiladi. Navbat bilan har birimizga mashg'ulot rahbari sifatida dars o'tkazishga imkon beradi. Mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda ular bilan o'zimizni qiziqtirgan mavzularda suhbat qurib, ma'naviy ozuqa olamiz.

Dilfuza Abdurahimova 2020-yilda "Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimini takomillashtirish" mavzusida pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. O'zbekiston mudofaa salohiyatini takomillashtirish va bo'lajak ofitserlarning ma'naviy-axloqiy kamoloti, axloqiy-ruhiy, jangovar tayyorgarligiga qo'yiladigan psixologik talablar bo'yicha 50 dan ortiq ilmiy maqolalar yozdi. "Harbiy pedagogika", "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya", "Harbiy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash", "Jadidlarning ma'rifatparvarlik harakatlari" nomli darslik va o'quv qo'llanmalar yaratdi.

Shu bilan birga akademiyada faoliyat olib borayotgan himoya kengashida rais o'rinbosari vazifasini bajardi. Besh nafar ofitserning harbiy fanlar, 50 dan ortiq tadqiqotchining pedagogika va psixologiya yo'nalishlarida yozilgan dissertatsiya ishlariga opponentlik hamda rahbarlik qildi. Uning rahbarligida akademiya dotsenti zaxiradagi polkovnik

Tohir Burxonov "Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarida ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari" mavzusida va podpolkovnik Habibullo Hasanboyev "O'zbekistonda harbiy pedagog kadrlarni tayyorlashning nazariy metodologik asoslari" mavzusidagi ilmiy ishini yakunlab, himoya qilish arafasida.

Dilfuza Abdurahimova akademiya kursantlariga harbiy psixologiya, harbiy pedagogika, harbiy faoliyatning boshqaruv psixologiyasi kabi fanlardan dars berib kelmoqda. Uning "Jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishning pedagogik asoslari", "Ofitserning pedagogik madaniyati", "Harbiy faoliyatda stress va uni bartaraf etishning psixotexnikasi" mavzularida o'tkazilgan ochiq mashg'ulotlari akademiya o'quv-uslubiy bo'limi nazoratchilari hamda professor-o'qituvchilar tomonidan yuqori baholangan.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining 2022-yil 31-avgustdagi bayonnomasiga asosan, Dilfuza Abdurahimova professor ilmiy unvoniga ega bo'ldi. Pedagogika fanlari doktori, professor Dilfuza Abdurahimovaning samarali mehnati munosib taqdirlanib, 2021-yilda Mudofaa vazirligining "Namunali xizmati uchun", 2022-yilda "Malakali ustoz" ko'krak nishonlari hamda qimmatbaho sovg'alari bilan mukofotlandi.

– Bunday yutuqlarga erishishimda ota-onam, turmush o'rtog'im va menga ilm bergan ustozlarimning mehnatlari beqiyos, – deydi qahramonimiz.

Ha, burchiga sadoqatli shunday ustozlarimiz bor ekan, davlatning qudratini yuksaltiruvchi fidoyi ofitserlar kamol topaveradi.

X. XOLBOYEV,
Harbiy meros va zamonaviy
tadqiqotlar instituti
katta ilmiy xodimi

Bir jang tarixi

ПАРФИЯ

ВА
РИМ

ЎРТАСИДАГИ МАШХУР

ЖАНГ



Парфия милоддан аввалги тахминан 250-йилларда Каспий денгизининг жанубий ва жануби-шарқий томонида вужудга келган қадимий давлат. Месопотамиядан Ҳиндистонгача бўлган ҳудудни ўзига бўйсундирган Парфия милодий учинчи асрнинг 20-йилларигача мавжуд бўлган.

Парфия армияси қўшинлар тизимига кўра бошқарилган, яъни уруш пайтида керакли бўлган лашкар сафарбар қилинган. Бунинг учун подшоҳ вилоятлар ҳамда қабила раҳбарларига лашкарларини йиғиб, умумий йиғин жойига келиши тўғрисида буйруқлар юборган.

Парфия қўшинларининг максимал сони 50-60 минг нафарга етган. Ҳарбий юришларда уларнинг сони кўпинча 10 000 кишидан ошмас эди. Қўшин ўнлик тизимга мувофиқ тузилган: кичик бириклар – «вашт», 1 000 кишилик бириклар – «драфш», 10 000 киши – «гунд» деб номланган.

Парфия қўшинлари барча кўчманчи халқлар сингарии асосан оғир ва енгил отлиқлардан ташкил топганди. Оғир отлиқлар камчиликни ташкил

этса-да, жангда асосий зарба берувчи куч бўлиб, ғалабага эришишда муҳим роль ўйнаган. Улар оғир зирх, пика, узун қилич ва камон билан қуролланган. Чавандозлар зирх билан тўлиқ ҳимояланганлиги боис уларда қалқон бўлмаган, отлар ҳам бутун танасини ҳимоя қиладиган металл ёки чарм зирх билан ўралган.

Енгил ва чаққон ҳаракат қиладиган моҳир отлиқлар олдинга ҳам, орқага маҳорат билан ўқ узиб, нишонларни яқсон қила олардилар.

Милоддан аввалги 53-йили бўлиб ўтган машҳур Карра жангида Парфия қўшинлари энг мақбул ўйланган тактика туфайли Красс қўмондонлигидаги Рим қўшинини буткул тор-мор этди.

Римга қарши курашда парфияликларни этно хослиги, бирлиги ва маданиятини сақлаб қолиш истаги ягона кучга бирлаштирди ва

бу уларга жангда энг яхши ҳарбий фазилатларини намоиш этишга имкон берди. Худди шу фазилатлар туфайли римликлар ғалабага эриша олмаслигини ҳис қилди ва енгилди.

Парфия қўмондони Сурена римликларга тўсатдан ҳужум қилишни режалаштириб, оғир отлиқларнинг ялтироқ зирхларини тери билан ёпди ва уларни пистирмага яширди. Тарихчи Плутархнинг ёзишича: «Римликлар яқинлашганда, парфияликлар ноғораларини уришди ва пистирмадаги қўшин ўрнидан кўтарилди, ёпқичларини ташлади, зирхлари қуёш нурларида ялтираб, тўсатдан душман олдида пайдо бўлди. Сурена ўз жангчиларига нисбатан бўйдор ва ўктам эди, у ўзининг ажойиб уруш отида кўринди. Ёши 30 да эди, ёш бўлишига қарамай, у ажойиб жасоратлари билан катта обрў қозонган эди».

Рим пиёдаларининг қувватини тўғри баҳолаган Сурена биринчи навбатда душманни чарчатишга қарор қилди. У енгил отлиқларга душманни ҳар томондан ўраб олишни буюрди. Красс камончиларини олдинга юборди, аммо парфияликлар дўл ўқларини ёғдириб, уларни орқага қайтарди. Парфия камончиларининг узоқдан отилган ўқлари қалқон ва зирхларни ҳам тешиб ўтарди. Римликлар танг аҳволда қолдилар. Отишмалар тўхтовсиз давом этди: олдиндаги чавандозларнинг ўқлари тугаганда, улар бошқалари билан алмаштирилди. Қўшин ортидаги туяларга мўл-кўл ўқлар юкланганди.

Красс парфияликларни Рим позицияларидан узоқлаштириш учун ўғлининг лашкарини ҳужумга юборди. 1 000 галлик ва 300 Рим отлиқлари, 500 камончи ва 8 когорт пиёда аскарлардан иборат кичик Публиус Красс жангчилари сохта чекинишга ўтган парфияликларга тезкор ҳужум қилиб, асосий кучлардан бутунлай ажралиб, парфияликлар қамалида қолди.

Галли отлиқлари Парфия катафрактарияларига ҳужум қилишга муваффақ бўлди. Бироқ уларнинг жон талвасасида жангга кириб, кўрсатган жасоратлари самара бермади. Қамалдаги душман асосий кучлари билан боғланишнинг иложи йўқлигини кўриб, тепалик устида ўқлардан ҳимояланиш мақсадида қалқонларини кўтариб, айлана ҳосил қилдилар. Отлар айлананинг ўртасига жойлаштирилди, аммо бу чора ҳам беҳуда эди. Ўқ ёмғирлари кичик Красс жангчиларининг қўлларини қалқонларига ва оёқларини ерга михлади.

Натижада, римликларнинг танланган 6 000 аскардан 5 500 нафари ҳалок бўлди, улар орасида қўмондон кичик Красс ҳам бор эди.

Уларнинг ўлими чарчаган римликлар руҳиятига қаттиқ таъсир қилди, айниқса, парфияликларнинг шод-хуррам қийқириқлар остида Красс ўғлининг найзага санчилган бошини намоиш қилиши уларнинг кучини сўндирди. Красс ғамга ботди. Шундан кейин парфияликларнинг қаттиқ босим ва ғазаб билан қилган ҳужуми бошланди. Жанг кун бўйи давом этди ва фақат тунда, парфияликлар орқага чекинганда тугади. Римликлар бундан фойдаланиб, Карра шаҳрига чекинишни бошладилар. Аммо тонгда улар яна ҳужумга учрадилар. Вазиятни тўғри баҳолаган Сурена римликларнинг таслим бўлиши бўйича музокараларни бошлади. Шундай қилиб, мазкур жангда Фуротни кесиб ўтган 40 000 аскардан 20 000 нафари ҳалок бўлди, 10 000 нафари асир олинди.

Римликларнинг мағлубияти ва парфияликларнинг жанг усулига канадалик машҳур ҳарбий тарихчи Дж. Денисон шундай баҳо берган: «Жанг римликларни парфияликларга ҳурмат билан муносабатда бўлишга мажбур қилди. Бир йил ичида Рим легионлари Эгей денгизи ва Геллеспонтга қайтарилди ва Сурия ҳамда кичик Осиё устидан ҳукмронлик парфияликлар қўлига ўтди. Ҳарбий тарихда бошқа турдаги қуроолларнинг ёрдамисиз фақат отлиқлар томонидан ғалаба қозонган жангнинг яна бошқа бир мисолини топиш қийин. Шу билан бирга, парфияликларнинг ҳаракат тезлиги ва отиш қуроолларини йўқ қилиш бора-сидаги устунлигини тан олиш керак».

Рафаэль АХМАДУЛЛИН,
Қуроолли Кучлар
давлат музейи
етакчи илмий ходими,
резервдаги подполковник

"Vatan bilan ulg'ayar shon-shavkatimiz!" tanloviga

MEHR OSHYONI

INKOROVLAR XONADONI YETTI NAFAR O'G'IL-QIZNI FARZAND QILIB OLDI

Dunyoda inson uchun farzandday aziz ne'mat yo'q. O'zbek xalqi azal-azaldan farzandim, deb yashaydi. Elimizda bejiz bolali uy bozor, deyishmaydi. Xonadoningda bolalar kulgisi-yu sho'xlilari jaranglab tursa, bundan ortiq baxt bormi?!

Ikkinchi jahon urushi davrida xalqimizning bag'rikengligi, bolajonligi butun dunyoning mehrini qozongan. Bugun xalqimiz ana shunday ezgu fazilati va oliyanobligini yana bir karra namoyon qilmoqda. Prezidentimizning 2021-yil 9-avgustdagi "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori o'tonasiz qolgan bolalar dardiga malham bo'lmoqda. Bolajon oilalar o'z ixtiyorlari bilan mehribonlik uylaridagi bolalarni oilalariga olib kelib, farzandlari kabi mehr berib, tarbiyalamoqdalar.

Ushbu ezgu va xayrli an'ana mamlakatimiz huquqni muhofaza qiluvchi organlari tizimida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar va xizmatchilar oilalarida ham davom etmoqda.

Chirchiq shahar 8-yong'in-qutqaruv qismi yo'riqchi-qutqaruvchisi oddiy askar Ixlosbek Inkorov ham ana shunday ulug' savob ishni amalga oshirgan hamkasblarimizdan biri. U davlatimiz rahbarining ezgu tashabbusi va qarorini eshitib, onasi Gulbahor aya, xonadon kattasi Faxriddin aka va rafiqasi Zarinaxon bilan maslahatlashdi. Ezgu maqsad bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi.

Shu tariqa bu xonadonning 2 farzandi yoniga mehribonlik uyidan turli millatga mansub, 7 nafar biri-biridan shirin, beg'ubor o'g'il-qiz kirib keldi.

Bolajonlarning buvisi, hazrati ayol Gulbahor aya bu haqda shunday deydilar:

– Uch nafar o'g'lim, ularning shirin-shakar farzandlari bor. 2-guruh nogironiman. Yoshimiz ham anchaga borib qoldi. Insondan bu dunyoda yaxshi ishlar qoladi. Farzandlarim Prezidentimizning qarorini qo'llab-quvvatlab maqsadini aytganida juda xursand bo'ldim. Ularga bergan tarbiyam izzat ketmabdi. Olti nabiram bor, endi ularning yoniga – Nazarbek, Arsen, Amir, Jasmina, Dildora, Nurmuhammad, Nursulton qo'shilib, 13 nafar bo'ldi. Xonadonimiz fayzga to'lib, katta bir jo'shqin dargohga aylandi. O'g'illarim unib-o'sgan ota hovlisiga qo'shni, yonimizdan uy solishgan. Dasturxon atrofida 24 nafar farzand-u nabiralar barchamiz jam bo'lib, ovqatlanamiz. Xudoga shukur, Yaratgan xonadonimizga fayz-u baraka sochib qo'rgan.

Qabul qilib olgan bolajonlarimni ham inshoolloh, shu katta hovlida tarbiyalab, voyaga yetkazib, "uchirma" qilamiz. Ular farishtalar kabi beg'ubor. Ularda aslo gunoh yo'q. Kelgan kunlaridanoq ularning mehrga qanchalik muhtoj ekanliklarini his qildim. Biz ularga o'zbekona odob-axloq, katta-kichiklar bilan muloqot qilish, uyni toza tutish, tozalik va salomatlik qoidalariga rioya qilish, bag'rikeng va mehribon bo'lish, kitob o'qish, ma'naviyatli bo'lishni ota-ona maqomida turib, mehribonlik bilan tushuntiramiz. Ular bu munosabatimizdan birdek quvonib, aytganlarimizni o'rnida bajarishga intiladilar.

Bir kuni Nurmuhammad menga: "Onajon, bizni o'zingiz bolalar uyiga tashlab ketib, yana qaytib olib keldingiz-a?!" deydi ko'zlari mehrdan porlab. Bu gapdan yuragim qanchalar larzaga tushganligini tasavvur qilsangiz edi. Men ham bola ko'nglini chil-chil qilishni istamayman. Ko'zlarimdan yosh quyilgan: "Ha, bolajonim, o'shanda men kasal bo'lib qolgandim, shuning uchun sizlarga qaray olmadim. Tuzalganimdan so'ng yana borib, sizlarni olib keldim", dedim. U mendan minnatdor bo'lib, qo'lchalari bilan yuzlarimni silab qo'yadi. Yana bir holat: qachonki qo'limga gugurt olsam yoki gazning yoniga borib, uni yoqsam, Nurmuhammad menga: "Onajon, unday qilmang, sochingiz yonib ketadi!" deyaverar edi. O'zi ham olovni ko'rsa qo'rqib, chetga o'tib olardi. Keyin bilsam Nurmuhammad va Nursultonning taqdiri ayanchli kechgan. Ularning ota-onasi yong'inda jarohat olib, bu dunyoni tark etgan. Buvisi ularni noilojlikdan mehribonlik uyiga olib kelgan va oradan hech qancha vaqt o'tmay, u ham vafot etgan ekan.

Keyin men bolajonim Nurmuhammadga olovdan qo'rqmaslik, undan doimo to'g'ri foydalanish lozimligini tushuntirib, undagi ruhiy zo'riqishni yumshatishga intildim... Ukasi Nursulton to'rt yoshda, juda shirin, tili biyron. Shunday savollar berib, ajoyib gaplarni gapiradiki, hayron qolasiz. Uch tilda donalab sanaydi. She'rlar aytadi. Mening ovunchog'im. Tunov kuni o'rtancha o'g'lim Xislatbek hazillashgan: "Onajon, bizga ham mehr bering, hammasini nabiralaringizga ulashvermasdan!", dedi tabassum bilan. Shu vaqt tili shirin Nursulton: "Onajonimda mehr sotilyapti. Siz ham oling!" desa bo'ladimi?! Hayronlikdan kula-kula qotib qoldik.

Bolalarga bo'lgan mehrimiz sabab xususiy bog'cha ochganmiz. Hozir ushbu maskanda 265 nafar bola



tarbiyalanadi. Kelinim Zarinaxon o'qituvchi, bog'chada ham ishlaydi, ham oliy o'quv yurtida o'qiydi. U bolajonlarimga xuddi o'z onasidek mehr beryapti, baraka topsin!

Men adabiyotni yaxshi ko'raman. She'rlar yozaman. Fursatdan foydalanib, quyidagi to'rt qator she'rimni aytib bermoqchiman:

*Ortga yo'l yo'q bo'lgan singari,
Umrimiz ham o'tib bormoqda.
Dilband bo'lib, mitti lolalar,
Bizdan meros bo'lib qolmoqda...*

Biz ana shu o'zimizdan keyin qoladigan mitti lolalarni munosib tarbiyalab, ularni voyaga yetkazib, dunyo chamanida bir gul kabi ochilib, ifor sochib yashashini ta'minlamog'imiz lozim. Zero, inson degan tabarruk zotning yashamoqligidan ham ma'ni shudir...

Biz kitoblarda, kinolarda ta'rifi eshitgan Shomahmudovlar, Mahkamovlar yoki Samadovlar oilalarining yoniga bugungi kunning chinakam ma'nodagi bag'rikeng, farzandparvar, ezgulik oshyoni, mehr buloqlari jo'shib qaynab turgan yana bir xonadonni – Inkorovlar oilasini ham qo'shishimiz mumkin.

Kezi kelganda aytish kerak, ayrim insonlar o'z bolasini sevib, ardoqlashga kuch topa olmayotgan bir vaqtda, o'zganing bolasini manim deb suygani, unga ota-ona mehrini bera olgan, buning uchun o'zida kuch-qudrat, matonat va himmat topa olgan insonlarni Hazrati Odam, deb atamay bo'ladimi?!

Bahodir VALIYEV

VATAN HIMOYASI

ISHONCHLI QO'LLARDA!

Vatan – kindik qonimiz to'kilgan muqaddas dargoh, bizning bugunimiz, kelajagimiz, baxt-iqbolimiz! Vatan deganda har doim ko'z oldimga tug'ilib o'sgan, ko'z ochib ko'rgan, ta'lim-tarbiya olib, voyaga yetgan aziz diyorum, obod yurtim – O'zbekiston keladi.

Qachondir o'qigan edim, "kishi o'zini Vatanga qanchalar yaqin his etsa, uni shu qadar jonli vujud kabi aniqroq va sevibroq tasavvur qiladi". Chunki Vatanga bo'lgan qalban yaqinlik insonni shu yurt, shu zamin uchun ulug'vor ishlar qilishga undaydi, uning tinchligi va osoyishtaligini ko'z qorachig'idek himoya qilishga chorlaydi. Bejiz, Vatan – sajdagoh kabi muqaddas, deyilmaydi. Hatto Islom manbalarida "Vatanni sevmoq iymondandir", degan purma'no gap bor. Ya'ni iymoni but, vijdoni pok

har bir inson o'z Vatani sevishi, uni g'animlar ko'zidan asrash, uning yashnashi va yashashi, hurli uchun kurashmog'i dardkor.

Iftixor bilan aytish joizki, bugungi kunda milliy armiyamiz saflarida xizmat qilayotgan har bir o'g'lon iymoni but, vijdoni pok asl vatanparvarlardir. Ular harbiylikni shon-sharaf ishi deb biladi. Shu bois o'z vazifasiga vijdonan, mas'uliyat bilan yondashadi. Ulardagi g'ayrat-shijoatni ko'rganda yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi ishonchli

qo'llarda ekanligidan ko'nglimiz yanayam ravshanlashadi.

Sobiq tuzum davrida harbiy xizmatda bo'lgan hamyurtlarimiz bilan suhbatlashganimizda ular o'sha vaqtda harbiy xizmatdagi boshboshdoqliklar, askarlar orasidagi nizomga zid munosabat, xullas, nosog'lom muhit haqida afsuslanib gapirishganiga ko'p bora guvoh bo'lganmiz. O'sha vaqtda ota-onalar qalbidagi behalovatlik, notinchlik... Demak, armiya xavotir va tahlikalar maydoniga aylangan. Shu boisdan ham odamlar farzandini qanday qilib bo'lmasin, armiyadan olib qolish yo'llarini izlagan.

Quvonarlisi, yurtimiz mustaqilligidan so'ng armiya mutlaqo yangicha, zamonaviy va yuksak ma'naviy asosda tashkil etildi. U millatning or-nomusi, sha'ni, shavkatini himoya qiluvchi, asrovchi ulkan kuchga aylandi. Bugun mustaqil Vatanimizning sharafli

armiyasi harbiy xizmat yoshidagi o'g'lonlar uchun haqiqiy ma'noda hayot maktabiga aylanib ulgurdi. Bugun yoshlar o'z ona yurtiga xizmat qilishni muqaddas burch deb bilmog'da.

Ha, bugun mamlakatimiz o'z milliy armiyasiga ega. Bu armiya zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlangan, chegaralarimiz daxlsizligini, mustaqilligimizni ishonchli himoya qilishga qodir. Uning saflarida minglab yigitlar buyuk ajdodlariga munosib, yurakda shijoat, qalbida aniq maqsad va cheksiz e'tiqod bilan ona Vatanga xizmat qilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, taqdirini yurt himoyasi bilan bog'lagan asl o'g'lonlar xalq ishonchini yurakdan his qilib, o'z yigitlik burchini vijdonan bajarmoqda.

Biz ular bilan haqli ravishda faxrlanamiz va shunday mard, jasur o'g'lonlar kabi bo'lishga intilamiz!

**Samandar SAYDIVALIYEV,
Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-
muhandislik bilim yurti kursanti**



QO'RIQCHI SO'ZLAR

Lutfiy nomidagi o'rta maktabdagi tahsilni tugatganimga ham 30 yil bo'libdi.

O'ttiz yil...

Bir vaqtlar tutning uzun xivichini ot qilib, tengdoshlarim bilan ko'cha changitib yurgan yosh bola edik. Akalarim ortidan qolmasdim. Otamning ishdan kelishini doim intiqlik bilan kutib o'tirardim. Bir kun otam oldiga chaqirdi-da, ko'ziga yosh olib, "O'g'lim, seni maktabga yozib ketishdi", dedi. Otam xo'rsinib, meni bag'riga bosar ekan, "Allohga shukur!" deya pichirladi va mahkamroq quchib, "Xudo xohlasa, akalarim va opalarimga qo'shib, sen ham sentabrdan o'qishga borasan!" dedi.

...Onamdan ayrilganimizda men bir parcha go'sht bo'lgan ekanman. Keyinchalik barchasini eshitdim. Odam bo'lishim uchun otamning qanchalar jon koyitganini bir voqea sabab angladim. Aytishlaricha, meni qo'yniga solib dizel haydar, yig'lasam shishada sut tutar, opalarim maktabdan qaytganda ularga topshirar ekan. Bir kuni viloyat kattasi – obkom otam ishlayotgan joyga kelib, ishchilar bilan majlis o'tkaza boshlabdi. Men choponning barida – otamning qo'ynida ekanman, majlis cho'zilib ketganmi yo boshqa... nima bo'libdi-yu, yig'ini boshlab yuboribman. Obkom avvaliga atrofga hayron qarabdi. Keyin to'g'ri otamning oldiga kelib, ismimni so'rabdi. U otamning taqdiridagi sinovni eshitib, maoshini kesmay turib, bir necha oy ta'til berdirgan ekan.

Goh otamning qo'ynida, goh opalarim bag'rida, gohida akalarimning yetovida maktab yoshiga ham yetdim. Birinchi sentabr... o'zimda yo'q xursandman. Oybahor opamning qo'lidan mahkam ushlab olganman, kichik opam Laylo atrofimizda yugurgilaydi, meni turtadi, bir nimalar deb kuladi, tushunmayman. Shu manzarani eslasam, hozir ham entikib ketaman. O'zimcha g'aroyib sehrlil bir maskanga borayotgan edim...

1-"B" sinfda o'qiydigan bo'ldim. Ustozim – Do'stmuhammad Rahimov. Qo'limga siyohli ruchka, bir dona daftar. Tevaragimda o'zimga o'xshagan ko'zlari hayratga to'la bolalar. Ustoz ruchkani qanday ushlashni, keyin har birimizning qo'limizdan tutib, uni varaq uzra yurgizishni birma-bir, erinmay o'rgatardi... Aji-buji, goh chiziqdan tepaga chiqib, goh pastga sho'ng'igan yozuvimizga ham kaaatta besh qo'yardi. Kundan kunga uy vazifalari qiyinlasha boshladi. Harflarni yozish va matematikani, sanoq sonlarni, hisoblashni o'rgana boshladik.

Bilmay qolgan paytlarimiz darsdan so'ng olib qolar edi.

Yuqori sinfda tarixdan Musurmon Murodov, kimyodan Meyli Do'sanov, biologiyadan Mo'min Shodiyev, ona tili va adabiyotdan Yo'ldosh Jumanazarov, rus tilidan Murod Ravshanov va Eshbuva domlalar dars o'tar edi. Hozir o'ylasam, maktabimizda ayol o'qituvchilar kam bo'lgan ekan. Ustozlarimizning har biri o'ziga yarasha kuchga ega edi. Har biri o'quvchilarning yuragiga yo'l topa olardi.

Bir kuni matematika darsida bolalar bir-birlariga qattiq gap gapirib, shovqin sola boshladi. Ustoz Do'stmuhammad Eshmurodov qo'lga bo'rni olib, yozuv taxtasiga qattiq urdi-da, yoza boshladi. "Ota", "Ona", "Vatan". Keyin bizga o'g'irilib, so'radi: "Bu so'zlarni kim tushuntirib bera oladi?" Hammamiz jim qolgan edik. Birorta so'z ayta olmagandik. Savolga o'zi javob berib: "Kimda kim darsda shovqin solib o'tiradigan bo'lsa, u ota-onasi va tug'ilib o'sgan Vatani behurmat qilgan bo'ladi", dedi. Bilmadim, kimdir bu so'zlarni hozir, "shunchaki gap-ku", deb o'ylar. Biroq bu so'zlar bizga qattiq ta'sir qildi. Ota-onaga hurmatsizlik... biz uchun kechirib bo'lmas gunoh edi.

Ko'z ochib yumguncha, o'n yil ham o'tib ketdi. 1991-yil Toshkentga o'qishga keldim. Mustaqillik arafasi, jamiyat o'zgarib, davralar qaynoq erkin fikrlarga to'lgan paytlar, ko'pchilik jonarak bo'lgan bir davr edi. Qarshi temiryo'l bosh bekatida otamning xursand bo'lib: "O'g'lim, men senga ishonaman!", degan so'zlari haligacha qulog'imdan ketgani yo'q. Shifokor bo'lishga qiziqqanim uchun Toshkentdagi Oxunboboyev nomidagi medtexnikumga hujjat topshirdim va akam ko'magida jiddiy tayyorgarlikni boshladim. Ko'z ochib yumguncha, bir oy ham o'tib qo'ydi. Ammo... o'qishga kirolmadim. O'shanda Toshkent temiryo'l bosh bekatida meni kuzatgani chiqqan akamning ko'zidagi yoshni ko'rib, judayam qiynalgandim. Buni so'z bilan ifodalab berish qiyin...

Uyga qaytdim. Qishloq odamlarining savollari o'z yo'lga, biroq otamning ko'ziga tik qarolmadim. Buzrugim men o'ylagandek xafa bo'lmadi, indamay,



uyga kirib ketdi. Bir haftalar ko'chaga chiqmay yurdi. O'sha lahzalarda otamning holatini tushunmagan bo'lsam-da, oradan o'ttiz yil o'tgandagina bildim. Katta farzandim Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetiga o'qishga kirdi. Bu xabardan o'zimni qo'yishga joy topa olmadim. Qizimga aytilgan qutlov va olqishlar xuddi menga aytilayotgandek edi. Yana bir qiziq gap, uni o'qiydigan fakultetiga olib kelganimda qizimga... ham o'qishga juda havasim keldi. O'shanda bu men uchun yetishib bo'lmaydigan dunyodek ko'ringandi.

2020-yil omadimni sinab ko'rmoqchi bo'ldim, chikkami pukka? Ne baxtki, 46 yoshimda O'zbekiston Milliy universitetining tarix fakultetiga shartnoma asosida o'qishga qabul qilindim. Saboqdoshlarim ukalarim va farzandlarim tengi. Qiziq bo'larkan. Yoshim kattaligi uchun dastlabki kunlarda o'zimni sinfdan sinfga qoldirilgan o'quvchidek his qilardim. O'zbekiston tarixi, jahon tarixi, arxeologiya, rus tili, ingliz tili... bu fanlardan saboq berayotgan ustozlarimdan minnatdorman.

Yuqori bosqichga o'tganimdan keyin meni maktabga ishga chaqirishdi. Birinchi dars 8-sinf o'quvchilari bilan bo'ldi. Odatdagidek meni "Assalooomu alaykum", deya kutib olishdi. Men o'zimni ulug'lar kabi his qildim, judayam mamnun bo'ldim. Xuddi 35 yil avvalgidek sinfda g'ala-g'ovur boshlandi, bolaligimni esladim. O'zimga "Ha, dunyo qiziq, bir vaqtlar sen ham tinmaslik qilib, darslarda to'polon qilib o'tirarding", dedim. Ustoz Do'stmuhammad domla kabi qo'limga bo'rni olib, yozuv taxtasiga bir urdim. O'quvchilarning barchasi menga qaradi. Yoza boshladim.

"Ota", "Ona", "Vatan". O'quvchilar ustoz mavzu shuni yozaylikmi, deyishdi. Men ham ustozimning so'zini takrorladim: "Ota-otangni hurmat qilsalaring, Vatanni yaxshi ko'rsalaring darsni tinchgina o'tamiz". Bu gapni eshitgan o'quvchilar biz kabi jim qolmagan bo'lsa-da, o'shanga yaqin

hol takrorlandi. "Ota-onasini behurmat qiluvchilar ham bormi, ustoz? Biz ota-onamizni hurmat qilamiz", deyishdi. O'quvchilar bilan birin-ketin tanisha boshladim.

Kun kunga ulandi, dars darsga. Bir narsani sezib qoldim, o'quvchilar bilganini yoki o'z fikrini aytishga iymanshar, xato qilib qo'yishga qo'rqishar ekan. Beshinchi sinf o'quvchilari bilan bo'lgan darsda ularga mustaqillik haqida tushuncha berib, o'z fikrlarini so'radim. Xonada pashsha uchsa seziladi. Hamma nigohini mendan olib qochgan. Bildim, ular hadiksirayapti. Lekin men ularni boricha so'zlashga undadim. Nihoyat, bir o'quvchi sekingina qo'lini ko'tardi. "Ustoz, tushunganimni aytсам mumkinmi?" Men, "Albatta, bilganingcha, qo'rqmasdan, o'zingni erkin qo'yib, gapiraver", dedim. "Yo'lda oldimdan chiqqan odamga salom berish, kimgadir yaxshilik qilish, qariyalarga yordam berish, ota-onani hurmat qilish bu – vatanni his qilish..." Rahmat senga, keyingi dars yana-da ko'proq o'qib kel, deb kundaligiga "a'lo" baho qo'ydim. O'quvchilar birin-ketin jonlandi. Menimcha, o'quvchilarim bilan o'rtadagi ko'rinmas devorni yiqitdim.

Deyarli har kun maktabdami yoki ko'chada "Ustoz" degan so'zni eshitishim bilan qalbimda bir hurmatga yo'g'rilgan his uyg'onadi. Otamning choponi ichida yotgan go'dakligimni, yuzlarini eslolmasam-da, mehribonim onamni, qadrdon maktabimni yodga olaman.

Har safar ustozim aytgan "Ota", "Ona", "Vatan" so'zlari shu paytga qadar ishonchli qo'riqchilarday hamisha yonimda yurganini favqulodda tiniq his qilaman. Ular mening "sadoqatli qo'riqchilarim", deyman o'zimga. Bu gapni hozir sizga ham ayta olaman!

Sirojiddin JUMANAZAR,
Qashqadaryo viloyati
Qamashi tumani 27-umumta'lim
maktabi o'qituvchisi

Mutolaa



YOZGANLARINI CHOP ETISHNI ISTAMAGAN ADIB

Shunisi qiziqki, Frans Kafka ijodini muayyan bosqichlarga bo'lib o'rganishning, uning qaysi asari qachon yozilib, qachon chop etilganini aniqlab, uning mahorati qanday o'sib borganligini bayon qilishning imkoni yo'q. Negaki u ko'proq o'zi uchun yozadigan adib edi. Shu bois bitganlarini eng yaqin kishilariga, shunda ham unchalik xushlamay ko'rsatardi. Ko'pincha uning yozganlari stoli tortmasida qolib ketardi. Shuning uchun ham dunyo adibning adabiy merosi miqyosidan uning o'limidan so'nggina xabardor bo'ldi.

Kafka o'z asarlarini yaxshi ko'rmas, ularni chop ettirishga deyarli qiziqmasdi. Hatto o'limi oldidan do'sti Maks Brodga o'zining chop etilmagan barcha qo'lyozmalarini tezda yoqib tashlashni vasiyat qiladi. "Menda adabiy qiziqishlar yo'q, men o'zim adabiyotdan iboratman", degandi F. Kafka do'stlaridan biriga.

U o'z asarlari haqida: "Men ularni yaratgan onlarnigina hurmat qilaman, xolos", derdi. Shunga qaraganda, Frans Kafka asarlarini shuhrat orttirish yoki qalam haqi uchun emas, balki yozmaslikning ilojini topmagani uchungina yozgan deyish mumkin. Adabiyotshunoslar Kafkaning birinchi asarini "Bir kurash

tarixi" hikoyasi (taxminan 1902–1903 yillarda yozilgan), so'nggi asari esa adibning kasali avj olgan 1923-yilda yaratilgan "Qurilish" hikoyasi, deb hisoblashadi. Boshqa hikoyalarning qachon yozilgani ma'lum emas. Lekin yozuvchining romanlari yaratilgan yillar aniq. Mutaxassislar adibning birinchi "Amerika" romani 1911–1916-yillarda, ikkinchi romani "Jarayon" 1915–1918 yillarda, so'nggi romani "Qo'rg'on" esa 1921–1922 yillarda yaratilganini aytishadi. Yozuvchining "Evrilish", "Hukm", "Jazo koloniyasida", "Ochlik ustasi" singari hikoyalari, "Otamga xat" esse si hozirda adabiyot ixlosmandlari orasida juda mashhurdir.

Hurmatli o'quvchi! Siz Kafkaga o'xshagan yozuvchi ijodi namunasiga ilk bora duch kelganingizda uning bitganlarini o'qib, dastlab hech narsa tushunmasligingiz mumkin. Chunki adib asarlarida chigallik, tushunarsizlik, betayinlikka o'xshash holatlar uchraydi. Buning sababini bilish uchun esa sizdan adib shaxsiyatiga xos xususiyatlardan xabardor bo'lish talab etiladi. Negaki u olamni, odamni, hodisalarni boshqalar singari emas, balki o'zicha ko'radi va o'zi ko'rganicha aks ettiradi. Uning yozuvchi sifatidagi nigohi, qarashlari esa odam

sifatidagi qarashlari o'zgachaligining in'ikosi sanaladi.

Aytilganidek, Kafka g'alati shaxsiyat egasi bo'lgan. G'oyat qobiliyatli, o'ziga xos Frans bolaligidanoq hech kimga o'xshamasdi. Jismonan ojiz, kasalmandroq bola juda ta'sirchan va asabiy bo'lib o'sdi. U hamma narsadan ko'ra ozodlikni, erkni sevar, lekin hech qachon erksevarligini ochiq namoyon etmas, ozodlikdan quvonib ketmasdi. Adib yolg'izlikni yaxshi ko'rib, intilar va ayni vaqtda, tanholikdan o'tdan qo'rqqanday qo'rqardi. Frans onasini yaxshi ko'rar, lekin sira tushunolmasdi. Otasidan juda cho'chir, uni o'zicha ayamoqchi, ko'nglini olmoqchi bo'lardi. Yaratib bergan barcha imkoniyatlar uchun otasi oldida o'zini qarzdor his qilar, shuning barobarida, o'zidagi tortinchoqlik, kuchiga ishonmaslik va ikkilanuvchanlikning sababchisi sifatida uni juda yomon ko'rdi. Kafka shaxsiyati qarama-qarshi tuyg'ular, xislatlar, qarashlarning uyumi bo'lgan, deyish mumkin. Kafka alohida har bir odamni yaxshi ko'rib, ayagani, uning baxtiyor bo'lishini istagani holda odamlardan imkon qadar o'zini olib qochar va o'z holicha yashashga intilardi. Yozuvchi: "Uylanish, oila qurish menimcha, odam qilishi mumkin bo'lgan ishning eng yuksagi", deya e'tirof etardi. Shuning uchun ham balki Yuliya Voxritsek ismli qizga bir marta, Felisiya Bauer degan qizga ikki marta unashtirilganiga qaramay, oila ham qurmadi, farzand ham ko'rmadi. Yozuvchi hayotidagi yana bir tushunarsiz holat esa uning yaqin odamlari ko'p bo'lsa-da, uni tushunadigan chin do'sti yo'q edi. Intizomli va bilimdon xodim bo'lishiga qaramay, xizmat vazifasida ko'tarilmadi. O'zini "adabiyotman" degan holda, bor kuchini sarflab ijod qilmadi.

Quyida biz yozuvchining hayot haqidagi qarashlarini e'tiboringizga havola etamiz.

Haqiqiy yo'l to'g'risidagi mushohadalar

Haqiqat yo'li yerning ustidan biroz balandlikda tortilgan arqon bo'ylab o'tadi. U unda borishdan ko'ra ko'proq u haqida xayol surishga mo'ljallanganga o'xshaydi.

Barcha insoniy xatolar sabrsizlik, ko'zlangan maqsaddan ilgariidan voz kechish, eng mayda, eng past moslasha bilish tufaylidir.

Boshqa barcha xato va gunohlarni keltirib chiqaruvchi ikkita eng katta inson gunohlari bor: sabrsizlik va beparvolik. Sabrsizlik tufayli inson jannatdan quvildi, beparvolik tufayli endi u yerga qayta olmaydi. Balki insonning faqat bitta katta gunohi bordir: sabrsizlik. Sabrsizligi sabab quvildi, sabrsizligi sabab qayta olmaydi ham.

Baxtsizlikning ko'plab soylari ularning ustidan ajal daryosining to'liqlari o'tganligi uchun bizga ko'rinmaydi, chunki u o'zimizdan oqib chiqadi va hayot dengizimizning sho'r ta'mini hali ham saqlamoqda. Daryoga teskari qarab suzish bu undagi oqimlarni junbushga keltiradi va marhumlarni

hayotga qaytara boshlaydi. Ular esa baxtiyor, rizolik qo'shig'ini kuylab, daryoga hamd-sanolar aytishadi.

Aniq bir nuqtadan boshlab ortga qaytish mumkin emas. Bu nuqtaga yetishish lozim.

Inson kamolotining hal qiluvchi lahzalari manguga cho'ziladi. Shuning uchun ham bu yo'ldagi ma'naviy inqilobiy harakatlar hali hech narsaga erishib bo'lmaganligidan dalolat beradi.

Qarashlarning turfa xilligi qanday bo'lishi mumkin, masalan, olmaga nisbatan: stol ustida turgan olmaga faqat bir bor qiyo boqish ilinjida bo'ynini cho'zayotgan bolakayning qarashi va hech bir qiyinchiliksiz olmani olib, uni ilhaq bo'lib turgan bolakayga beradigan uy egasining qarashi.

Bu hayot zindon, boshqasi esa sarobdir. Sen o'lishni istayotganligingdan endi uyalmaysan ham; sen nafratlanadigan eski kameradan sen faqat endi nafratlana boshlaydigan

yangisiga ko'chirib o'tkazishlarini so'raysan. Shunda e'tiqod yo'li sari odimlayotgan mahbusning holidan xabar olish uchun dahlizdan qamoqxona boshlig'i o'tib qoladi hamda shunday deydi: "Bu kamerani boshqa band qilmang. Men uni o'zimga olaman".

Agar sen to'g'ri yo'ldan erkin irodang bilan borgan bo'lsang va hayotingdagi jamiki kechmishlar ortda qolgan bo'lsa, unda hammasi o'tmishga aylanarmidi; ammo bu qilko'prikdan o'tayotganingda sen unga osiltirib qo'yilganga o'xshaysan, unday bo'lsa qadamlar faqatgina yerning xususiyatlariga ko'ra tashlangan bo'lishi mumkin va ortga qaytishingning imkoni yo'q.

Kuz yo'lga bir nazar tashlang: hozirgina undagi xazonlarni supurib tashlashdi, u esa yana qurigan barglar bilan qoplanadi.

Qafas qush izlagani ketdi.

Bu joyda men hali biror marta ham

bo'lmadim: yo'qsa quyoshdan-da yorqinroq ko'zni qamashtiruvchi nur sochilgan, uning oldida esa yulduz charaqlagan bo'lur edi.

Agar Bobil minorasini qurish mumkin bo'lganida edi, uni qurishga kirishmasdan oldin bunga marhamat qilingan bo'lur edi.

Leopardlar ibodatxonaga hujum qilishadi va qurbonlik uchun atalgan idishlardagi muqaddas ichimliklarni ichib qo'yishadi; bu har gal takrorlanaveradi; va alaloqibat bu bir o'zgarmas qonuniyatga aylanib, an'ananing bir qismiga aylanadi.

Sen – bu topshiriq. Atrofdada esa hech qanday o'quvchi yo'q.

Haqiqiy dushman oldida senda cheksiz mardlik paydo bo'ladi.

Bu qanday baxt, sen turgan zamin bosib turgan ikkala qadamingdan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Dunyoda qanday qilib shodlanish mumkin? Faqat sen uning ichiga qochib kirsang.

Saidakmal MAMASOLIYEV tayyorladi.

Keling, kitob o'qiyimiz!



«80 ёшга кирганингизда, ҳаётингизни сўзлаб берар экансиз, қўлайдиган энг қизғин ва мазмунли ибораларингиз – танлаган йўлингиз ҳақида бўлади. Ахир ҳаммамизнинг ҳаётимиз танловдан иборат. Ўзингиз ҳақингизда ажойиб ҳикоя яратинг».

Жефф БЕЗОС,

(«Amazon.com» асосчисининг битирув нутқидан)

«ЎЗИНГИЗ ҲАҚИНГИЗДА

ажойиб ҳикоя яратинг»

гина тарк этади, деб ўйлайсизми?! Синфда 25 ўқувчи шундай қўрқувда ушлаб турилса, йиллар ўтиб, 25 та қўрқоққа айланмайди, деб ким кафолат бера олади? Бу биз ижтимоий тармоқларда гувоҳ бўлганимиз, биргина ҳолат. Такрорланмас ҳолат бўлса, кошкийди.

Бугун таълим соҳасида ривожланган давлатлар тажрибасини кенг қўллаш устида баҳслар кечмоқда. Демак, бу соҳада улкан ижобий ўзгаришлар бўлади, деган умиддамиз. Осон бўлмайди.

Комил инсон тарбияси ҳамма замонлар учун хос, долзарб. Замон шиддат-ла одимляпти. Ана шу тезлик ичида муваффақиятга эриша оладиган болани тарбиялаш ҳам осон эмас. Қаранг, ҳамма нарса энг аввало маърифатга, илмга бориб тақалади. Барча ота-она муваффақиятга эриша оладиган, ақлли болалар тарбиялагиси келади. Қандай қилиб? Бунинг учун китобларга мурожаат қилиш керак. Сериялардан, дугоналар билан ғийбатлардан, бозор-ўчардан, телефонлардан ортиб, тўғрироғи, воз кечиб, энг яхши ёрдамчи, маслаҳатчи бўлган китобдан фойдаланамиз.

Бугуннинг афзалликлари жуда кўп. Шулардан бири тарбия борасида замонавий илмий оммабоп асарларнинг ўзбек адабий тилида ҳам мавжудлигидир. Яқинда олганим гўзал тўхфа юқоридаги ўй-фикрларимга жуда уйғун келди. «Янги аср авлоди»да нашрдан чиққан «Болалар муваффақиятга қандай эришадилар» китобини варақлар эканман, дарҳол бошқаларга ҳам тавсия қилгим келди. Бу китоб ота-оналар учун беминанат ёрдамчи, доно маслаҳатчи вазифасини бажара олади. Муаллифлар Мўмин Секман, Др. Баҳар Эриш китобга эликдан ортиқ тадқиқотлар жамланмасини киритдилар.

«Болалар муваффақиятга қандай эришадилар» китоби дунёнинг ўзи каби кўҳна саволига замонавий дунёнинг илмий хулосалари билан жавоб беради. Китоб ҳар бир оила учун ноёб хазина. Албатта, фарзандлари муваффақиятга қизиққан ҳар бир ота-она, муаллим бу хазинадан баҳраманд бўлишга ҳаракат қилади.

Бир бадий асар каби сизга тавсия қила олмайман. Энг ав-

вало, китоб мавзуларига эътибор беринг-а: «Муваффақиятни пулга сотиб олиш мумкинми?», «Исmlарнинг карьерага таъсири», «Муваффақият ва оталар», «Хитойлик она, америкалик она, турк она. Қайси бири муваффақиятлироқ?», «Мақтабда ўғил болалар яхшироқ ўқийдими ёки қизлар?», «Фақирлик, фаровонлик ва муваффақият», «Ота-она муносабатининг муваффақиятга таъсири», «Таслим бўлма!», «Нонуштанинг баҳога таъсири»...

Асли ўқувчиларимизга тавсия этмак учун мавзуларнинг ўзиниёқ келтириш етарли бўлар эди. Китобдан парчалар келтирилмаса, тавсиямиз кемтик бўлиб қолади. Шунинг учун эътиборингизга айрим парчаларни ҳавола қиламиз.

«Жефф 3 ёшдалигида кенг тўшақда ухлашни хоҳлаётганини айтди. «Ҳали мавриди эмас, катта бўлсанг ётасан», деди унга жавобан онаси. Бир неча кундан кейин у болалар хонасига кириб, кичкинтой Жеффни болға ёрдамида ўзи ухлайдиган беланчакни қисмларга ажратмоқчи бўлаётганида тутиб олди! Шунда онаси уни хафа қилмади, аксинча унга қаршиб юборди. Ўша тундан бошлаб, Жефф кенг тўшақда ухлади!»

Дунёни забт этадиган болалар ҳаракатни ўз хоналаридан бошлашади! Болакай Жефф ўрта мактабда ўқиётган чоғида механик асбобларга ўта қизиқарди. У хонасининг эшигига кўнғироқ ўрнатди, укаларидан бири унинг хонаси олдидан ўтса, у жирингларди».

«Қайсар болалар елканли қайиқлар каби атрофидаги шамоллар билан елкадош юрмайдилар, балки улар учоқлар каби шамолга қарши туриб, осмонга парвоз қилишади. Муваффақиятнинг бу икки тури ҳам умумий ва ҳурматга сазовор. Бироқ иккинчиси ёшларни ва ақлли одамларни кўпроқ ўзига жалб қилиши ҳақиқатдир!»

«Фарзандларингиз билан тез-тез суҳбатлашингиз ва кундалик воқеаларни биргаликда муҳокама қилишингиз, баҳолашингиз мумкин. Айниқса, катта оилалар ижтимоий интеллектни ривожлантириш учун қўлайдир. Бобо-бувилар, амаки-аммалар, опа-сингиллар ва ака-укалар тез-тез учрашиб турадиган хонадон турли хил қарашларга тўла бўлади».

«Уч ёшгача болаларнинг узок муддат давомида экран қаршиси-

да ёлғиз қолмаслиги учун эҳтиёт бўлишингиз керак. Тадқиқотларга кўра, оммавий ахборот воситалари, жумладан, уяли алоқа орқали бўладиган мулоқот табиий ўзаро таъсир ўрнини боса олмайди».

«Сиз унга уй ҳайвонлари билан ўйнаш имкониятини яратиб беришингиз мумкин. Агар имконингиз бўлса, уй ҳайвонини уйингизга олиб келинг. Инсон мияси ўздан фарқли жонзотлар билан мулоқот қилганда кенгайдими».

«Мен ақллиман!» психологияси ўз устида ишлашни бутунлай тўхтатиб қўяди. Болалар ўз устида ишламагач, вақт ўтиши билан уларнинг муваффақиятларида сезиларли пасайиш кузатилади. Маълум бўлишича, болага қирқ марта «аҳмоқ» десанг – аҳмоқ бўлгани каби қирқ марта «ақлли» десанг ҳам аҳмоқ бўлар экан!»

«Лидс университетининг Инсон иштаҳаси тадқиқот бўлими (ҳа, номи шундай) нонуштанинг мактаб муваффақиятига таъсирини ўрганувчи 22 тадқиқотни таҳлил қилди. 22 тадқиқотдан 21 тасида нонушта мактаб муваффақиятига ижобий таъсир кўрсатиши аниқланган.

Тадқиқотларнинг умумий натижаларига кўра, мунтазам равишда нонушта қиладиган болаларнинг мактаб баҳолари юқори бўлади. Нонушта қилмайдиган болалар дарсда диққатини жамлашга қийналади, бу уларнинг мактабдаги муваффақиятини пасайтиради. Нонушта муваффақиятнинг биологик асосини мустаҳкамлайди».

«Мавлоно Жалолиддин Румий бежиз айтмаган: «Ким билан юрганингизга эътиборли бўл, булбул гулга, қарға ахлатга олиб боради». Фарзандингизнинг энг яқин дўстлари ҳақида ўйлаб кўринг: у булбуллар билан юрибдими ёки қарғалар билан?»

«Ҳар бир инсон ўқитувчидир. Ҳар бири! Балки фарзандларингиздир, балки кўшнингиз, атрофингизда сизни кузатаётган кимдир бор. У ёки бу ҳаракатингиз билан уларга ниманидир ўргатасиз».

Азиз ўқувчи, «юз марта гапиргандан кўра, бир марта кўрган афзал» деган гапни сиз ҳам биласиз. Шундай экан, бу китобни ўзингиз ўқинг, афсусланмайсиз, уни суддан ажратиб олинган қаймоққа ўхшатдим.

Ҳузурли мутолаалар тилаги билан

Инобат ИБРОҲИМОВА,
«Vatanparvar»

И ж т и - мой тармоқларни кўп кузатаман. Айниқса, таълим соҳасида, айрим мактабларда ўқитувчилар томонидан куч ишлатиш ҳолатларини кўриб, юрагим ачишади. Ўқувчилар дафтарини текшираётган муаллима... бажарилган топшириқдан кўнгли тўлмаган ўқитувчининг болаларни ураётгани, устозини қўрқув билан кузатаётган болалар... Энг қизиғи, айрим «оқловчилар»нинг изоҳи: «Биз ҳам калтак еганмиз, ўлганимиз йўқ...» Булар орасида ўқимишли инсонлар ҳам бор!

Ҳа, ўлмадингиз, аммо зўравонликни қўллаб-қувватлаясиз! Ривожланган дунё шафқат юзасидан цирк ареналарида ҳайвонлар иштирокида томошалар кўрсатилишига қарши чиқмоқда. Сиз эса мактабда болага нисбатан зўравонликни ёқлаясиз?!

Туркий дунёнинг улўғ ёзувчиси Чингиз Айтматовнинг «Биринчи муаллим» асарида шундай парча бор: «Унинг кул сингари бўзарган совуқ кўзларида ҳеч қандай жон йўқ. Кучук болалигида миясига урилавериб, кўкмиа бўлиб қолган итнинг термилган кўзларига ўхшайди».

«Калтакдан ўлганимиз йўқ...» деган иддаоларни ўқиганимда, эшитганимда донишманд ёзувчининг кўкмиа кўз олдимда гавдаланади. Ҳиссиз, бепарво. Одам билан ҳайвоннинг фарқи бор, табиий. Аммо кўчада думалаб ётган одам ёнидан бефарқ ўтаётганлар ҳам бизмиз-ку. Қўрқув ҳисси болани осон-

Tanqidiy tahlil

MUHIM MASALALAR
muhokamasi

Samarqand harbiy prokuraturasi tomonidan Markaziy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi bilan hamkorlikda joriy yilning o'tgan 10 oyidagi jinoyatchilik va huquqbuzarlik tahlili, ularning oldini olishga qaratilgan tadbirlarga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.



Yig'ilishda harbiy okrug bo'ysunuvdagi barcha harbiy qism va muassasalar rahbariyati ishtirok etdi. Tadbirda o'tgan davrda qayd qilingan jinoyat va huquqbuzarliklar sabablari tanqidiy tahlil qilinib, ularning sodir etilishi shart-sharoitlari atroficha o'rganildi va qat'iy choralar ko'rildi.

Shuningdek, kelgusida harbiy xizmatchilar tomonidan xizmat faoliyati davomida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan qonun buzilishi holatlari, sodir etilishi mumkin va ehtimoli bo'lgan huquqbuzarlik va jinoyatlarni oldindan

bartaraf etish hamda ularning oldini olish lozim bo'lgan holatlar tahlil qilinib, tegishli chora-tadbirlar belgilandi va ijroga qaratildi.

Bundan tashqari, qish mavsumi kirib kelayotganligi munosabati bilan harbiy xizmatchilarning sog'lig'ini saqlash, qulay xizmat sharoitini yaratish to'g'risida harbiy qism komandirlari va muassasa boshliqlariga ko'rsatmalar berildi.

Adliya polkovnigi Odiljon O'SAROV,
Samarqand harbiy prokurori

Muammo va yechim

OMMAVIY SAYYOR
qabul o'tkazildi

O'zbekiston
Respublikasi

Harbiy prokuraturasi tashabbusi bilan Surxondaryo viloyatida xizmat burchini o'tayotgan harbiy xizmatchilar, xodimlar va ularning oila a'zolari muammolarini o'rganish hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida mutasaddi idoralar vakillari hamkorligida sayyor qabul o'tkazildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining o'rinbosari Sarvar Muxitdinov qatnashdi.



Ommaviy sayyor qabulda 150 nafardan ortiq harbiy xizmatchi va ularning oila a'zolari ishtirok etdi. Ulardan turli muammo va huquqiy masalalarda jami 48 murojaat qabul qilinib, 14 tasi joyida qanoatlantirildi. 15 ta murojaat nazoratga olingan holda tegishli tashkilotlarga yo'naltirildi va 19 tasi yuzasidan mutaxassislar tomonidan huquqiy tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, qabul yakunida xizmat vazifalarini vijdonan bajarib, ijobiy natijalarga erishgan xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida esdalik sovg'alar tarqatildi.

Shu kuni O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Prezidentimizning "2022-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori asosida 2022-yilda huquqni muhofaza qilish va mudofaa obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha manzilli ro'yxatga kiritilgan Surxondaryo viloyatida joylashgan Termiz harbiy gospitali hududi obyektlarida olib borilayotgan qurilish ishlari ahvoli bevosita joyiga chiqqan holda o'rganildi.

O'rganishda qurilish uchun mas'ullarning fikrlari, mutaxassislarining hisobotlari tinglanib, ularga shartnoma shartlariga muvofiq bajarilayotgan ishlarining o'z muddatida va belgilangan sifat ko'rsatkichlariga javob berishi lozimligi yuzasidan zarur ko'rsatma va tavsiyalar berildi.

Adliya polkovnigi Sherzod XAYITOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

Yong'in xavfsizligi oyligi

HAMKORLIKDAGI
profilaktika

Farg'ona garnizonidagi harbiy qismlarning birida garnizon yong'in nazorati inspeksiyasi hamda Farg'ona viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan hamkorlikda o'quv mashg'uloti tashkil etildi. O'quv mashg'ulotidan ko'zlangan maqsad tashkilotlar, aholi yashash xonadonlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlar, gaz-havo aralashmasining chaqnashi fuqarolarning is gazidan zaharlanishi va boshqa favqulodda hodisalarning oldini olish.



Tadbir davomida zamonaviy yong'in o'chirish avtomobillari va asbob anjomlari ko'rgazmasi ham namoyish etildi. Yong'in qutqaruv bo'linmasi tomonidan yong'in sodir bo'lganida harakatlanish tartibi, yong'inning kelib chiqish sabablari, yong'inida qolib ketgan insonlarni xavfsiz hududga olib chiqish, yong'inni o'chirishda birlamchi yong'in o'chirish anjomlaridan foydalanish bo'yicha ko'rgazmali jangovar vaziyat tashkil etildi.

Shuningdek, harbiy qism hududida joylashgan ko'p qavatli uylarda ham profilaktik tadbirlar davom etdi. Ularda 47 ta xonadon o'rganilib, 200 ga yaqin harbiy xizmatchi va ularning oila a'zolari bilan tushuntirish ishlari olib borildi.

Favqulodda vaziyatlar
boshqarmasi
matbuot xizmati

Viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tegishli mutaxassislari, yong'in-qutqaruvchilari, shahar "Hududgaz" xodimlari hamda 550 nafarga yaqin harbiy xizmatchi ishtirok etgan o'quv mashg'uloti davomida kuz-qish mavsumida yong'in xavfsizligi talablariga jiddiy e'tibor qaratilishi, beparvolikga yo'l qo'ymaslik, respublikamizda sodir bo'lgan yong'inlar va ularning ayanchli oqibatlari, shuningdek, is gazidan zaharlanish hamda uning mohiyati to'g'risida to'liq ma'lumot berildi.

VIDEOKONFERENS
mashg'ulot

Mudofaa vazirligi shaxsiy tarkibi, birlashtirilgan harbiy obyekt, qurol-yarog' va texnikalarni 2022-2023-yil kuz-qish mavsumida yong'in xavfsizligini ta'minlash hamda betalafot o'tkazish maqsadida harbiy qism va muassasalarda o'tkazilayotgan "Yong'in xavfsizligi oyligi"da harbiy xizmatchilar faol ishtirok etmoqda.



yo'nalishdan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan Toshkent shahridagi Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism madaniyat markazida "Yong'in xavfsizligi oyligida faol ishtirok etaylik!" mavzusida videokonferensiya mashg'uloti bo'lib o'tdi.

Unda qo'mondonlik boshqaruv apparati, shuningdek, respublikamizning turli hududlaridagi bo'ysunuvchi harbiy qismlar shaxsiy tarkibi ishtirok etdi.

So'zga chiqqanlar mamlakatimizda 15-noyabrdan 15-dekabr gacha davom etadigan "Yong'in xavfsizligi oyligi"ni yuqori saviyada o'tkazish haqida so'z yuritdi. Tadbir yakunida yong'in xavfsizligi bo'yicha profilaktik videolavhalar namoyish etildi.



Ushbu davrda yong'in xavfsizligini ta'minlash, shaxsiy tarkibning doimiy jangovar shayligini saqlash eng muhim

Podpolkovnik O'ktam XAITOV,
TOQQ yong'in xavfsizligi xizmati
boshlig'i

Xalqaro talabalar konferensiyasi – 2022

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti jamoasi 19-20-noyabr kunlari "3-renessansga ilk qadamni biz bilan tashlang!" shiori ostida o'tkazilgan "Xalqaro talabalar konferensiyasi – 2022" (*International Students conference*)da qatnashdi.

ZABT ETILGAN natijalar

Bilim yurtining tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasida boshchiligida ishtirok etgan bir qator kursantlar mazkur xalqaro konferensiyada yuqori natijani qo'lga kiritdi. Xususan, "Informatsion texnologiyalar" yo'nalishida "The best speaker" (*ilmiy loyihasini a'lo darajada ma'ruza qilgani uchun*) 3-bosqich kursanti A. Ziyodullayev, "Ilmiy ish va innovatsiya" yo'nalishida "The best speaker" (*ilmiy loyihasini a'lo darajada ma'ruza qilgani uchun*) 4-bosqich kursanti D. Xursanov, shuningdek, "Tadbirkorlik va biznes" yo'nalishida "The best delegate" (*eng yaxshi biznes loyiha taqdim qilgan ishtirokchi*) 4-bosqich kursanti B. Eshmurodov birinchi o'rinni egalladi.



"The best article" (*eng yaxshi maqola*) yo'nalishida 4-bosqich kursanti D. Xursanov, dotsent p.f.f.d (*PhD*) Sh. Islamova, "Active participation" (*faol ishtirokchi*) sifatida kapitan A. Aminjonovning ishlari e'tirof etildi.

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti jamoasi "Xalqaro talabalar konferensiyasi – 2022" doirasida



eng faol jamoa sifatida tan olinib, maxsus sertifikat bilan taqdirlandi.

Darhaqiqat bunday tanlovlar kursantlarning iqtidorli yoshlar bilan fikr almashishi va innovatsion faoliyatini yanada takomillashtirishiga xizmat qiladi.

Sh. SHARIPOV

Uchrashuv

HARBIYLAR huzurida

"Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!" shiori ostida o'tkazilayotgan "Ma'naviyat festivali" doirasida bir guruh ijodkorlar, elimizning taniqli san'atkorlari, teatr va kino arboblari bilan birgalikda mamlakatimizning eng navqiron viloyatlaridan biri bo'lmish Navoiy viloyatidagi harbiy qismlardan birida bo'ldik.



jamlangan axborot-resurs markazi harbiy yigitlar uchun haqiqiy ziyo maskaniga aylangan.

Zamon talablari asosida yangi barpo etilgan "Amir Temur" va "Jaloliddin Manguberti" sinflarida bobolarimizning yurt tinchligi va xalqining ozodligi uchun ko'rsatgan jonbozliklari va jasoratlari xususida suhbat olib borildi.

Tadbir so'ngida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi To'liq Eshbekning "O'zbekning yomoni bo'lmaydi" hamda kaminaning "Bobomdan meros bog'lar", "Mardi maydonlar yurti" nomli yangi kitoblari harbiy qism kutubxonasiga hadya qilindi.

Iste'fodagi polkovnik Zikrilla NE'MAT, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Uchrashuv davomida harbiy qism hovlisidagi saranjom-sarishtalik, dov-daraxtlar va gullarning orastaligi, keng va shinam maydonda hazrat Alisher Navoiyning byusti o'rnatilgani bizni g'oyat quvontirdi. Bu yerda dastlab harbiy qismning jangovar texnikalari va zamonaviy qurol-aslahalari namoyish etildi. So'ng harbiy xizmatchilar uchun tashkillashtirilgan kutubxona faoliyati bilan tanishdik.

Bu maskanda ma'naviy-ma'rifiy ishlar qanchalik yuksak darajada yo'lga qo'yilgani, ko'plab ziyo maskanlari, "Vatanparvarlik burchaklari"ning harbiy xizmatchilarning o'z qo'llari bilan yaratilgani tahsinga sazovor. Ayniqsa, 3 mingdan ortiq badiiy kitoblarga ega bo'lgan shinamgina kutubxona, 10 mingdan ortiq kitoblarning elektron varianti

"Quvnoqlar va zukkolar"

SAHNADA HAZIL haqiqatlar

Butun zalni qiyqiriq tutadi. Ko'zgudagi aksini ko'rib, o'zini kulgidan tiya olmayotgan tomoshabinlarning ko'zlaridan yosh chiqib ketganiga ham guvoh bo'ldik. Bu jamoalarning tanlovga qizg'in taraddud ko'rganidan dalolat berardi.



Chirchiq garnizonidagi uchuvchilar harbiy qismida Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligiga qarashli harbiy qism va muassasalardagi "Quvnoqlar va zukkolar" tanlovinin II bosqichi bo'lib o'tdi. Unda "Boshqacha", "Yangi parvoz", "Samo lochinlari", "Qanotli qo'riqchilar" va "Trevoga" jamoalari 3 ta shart bo'yicha bellashdilar.

Birinchi "Tanishtiruv" shartida jamoalar harbiy xizmat, undan oldingi va keyingi holatlarni satirik muqoyasa qildilar. Kulgili, hayotiy va to'qima voqealardan foydalanib, o'zlarini tanishtirishdi.

"Videoklip" shartida esa harbiy xizmat bilan bog'liq dolzarb muammo va kamchiliklarni hajviy yo'sinda namoyish qilib berdilar. "Musiqali uy vazifasi" shartida mashhur qo'shiq

va raqslar harbiy yo'nalishga moslashtirilib erkin mavzuda sahnaga olib chiqildi. Ayrim o'rinlarda kulgiga zo'r berib, hayosiz iboralardan ham foydalanib yuborishganini inobatga olmaganda tanlov ko'ngildagidek o'tdi.

Ularning chiqishlarini baholab borgan hakamlar hay'ati bir ovozdan "Samo lochinlari" jamoasini g'olib deb topdilar.

Kapitan Aziz NORQULOV, "Vatanparvar"

G'urur timsoli

"MUQADDASDIR Vatan bayrog'i"

Mirzo Ulug'bek tumanidagi 241-umumta'lim maktabida O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan "Muqaddasdir Vatan bayrog'i!" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.



Tadbirda dastlab so'z olgan maktab direktori Ziroat Yermatova davlat ramzlarning, xususan, bayrog'imizning mamlakatimiz hayotida tutgan o'rni va ahamiyati haqida to'xtalib o'tdi. O'quvchi-yoshlarni Vatanimizga munosib qad rostlab, bayrog'imiz ostida ulug' ishlarga qodir bo'lishlariga, yuksak dovonlarni zabt etishlariga ishonch bildirdi va omad tiladi.

Tadbirda tashrif buyurgan tuman xalq ta'limi bo'limi mas'ul xodimi Feruza Sultonova so'z olib, O'zbekistonimizning davlat ramzlari xalqimizning shon-sharafi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassam etganiga urg'u berib o'tdi. Shu sabab bayrog'imiz shu yurtida yashovchi har bir fuqaroga g'urur, ishonch, faxr va iftixor bag'ishlashini ta'kidladi.

Bayram tadbirida so'zga chiqqanlarning barchasi Vatanimiz bayrog'ini ta'rif-u tavsif etish bilan bir qatorda, ishtirokchilarni bayram bilan muborakbod etdi, samimiy tilaklar bildirdi.

Maktab o'quvchilarining bayrog'imiz sha'niga bitilgan she'r va qo'shiqlar ijrosi, sahna ko'rinishlari va ko'rgazmali chiqishlari davraga o'zgacha fayz kiritdi.

Sen qo'limda ekan, ko'ksimda shaxt bor,
Yengilmas iroda – jur'at bor, ahd bor,
Jonimdan yaralgan Vatan bor – taxt bor,
Ona yurt bayrog'i – nomus-orimsan!

Dilafuz MUSLIMOVA,
241-umumta'lim maktabining
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha
direktor o'rinbosari

Sogʻlom turmush tarzi

Tirnoqlar bilan bogʻliq xastaliklardan eng koʻp tarqalgani tirnoqlarning et ichiga oʻsishi – onixokriptoz hisoblanadi. Koʻpincha bu holat oyoqning katta barmoqlarida uchraydi. Natijada, yalligʻlanish, shishish, qizarish va ogʻriqli hislar paydo boʻladi. Agarda barmoqda ogʻriq kuchli boʻlsa-yu, lekin siz “oʻtib ketadi, chidayman”, deb eʼtiborsizlik qilsangiz, adashasiz. Chunki bu ogʻriq oʻtib ketmaydi. Aksincha, barmoqda yiringlash jarayoni boshlanadi. Qarabsizki, muammo surunkali holatga aylanadi. Statistik maʼlumotlarga koʻra, Yer yuzida juda koʻp insonlar surunkali onixokriptozdan aziyat chekadi. Aslida bu kasallikning vujudga kelish sabablari nimada? Uni davolashning qanday usullari bor? Quyidagi maʼlumotlarimiz shu haqda.

**KASALLIKNI KELITIRIB
CHIQUVCHI SABABLAR**

Asosan tirnoqni notoʻgʻri olish va sifatsiz pedikyur uning et ichiga oʻsishiga sabab boʻladi. Onixokriptoz rivojlanishining asosiy sababi, aynan tirnoq qaychisi bilan ishlay olmaslik va tirnoqlarni kesishda ehtiyotsizlikdir. Bunda siz tasodifan tirnoq burchagini kesib tashlaysiz. Natijada, tirnoqning oʻtkir burchagini yoki uchini qoldirib, teri chetini qaychi bilan shikastlaysiz. Bularning barchasi aksariyat hollarda tirnoqlar et ichiga oʻsishini keltirib chiqaradi. Shuningdek, bu xastalik noqulay, tor, uchli hamda kichik oyoq kiyimlar kiyishdan ham kelib chiqadi. Koʻpchilik katta oyoq kiyimning zarari yoʻq deb oʻylaydi, ammo oyoqqa mos boʻlmagan tuflilar ham onixokriptozni keltirib chiqaradi. Yana nasldan-naslga oʻtadigan moyillik, oyoq barmoqlari shaklining oʻzgarishi (*orttirilgan yoki tugʻma maymoqlik hamda yassioyoqlik*), oyoqning zamburugʻli kasalliklari, oyoq barmoqlarining shikastlanishi, oyoq barmogʻi atrofidagi turli yaraqaqalarning paydo boʻlishi, oyoqda qon aylanishining buzilishi kabi holatlar ushbu kasallikning yuzaga kelishiga zamin boʻladi. Baʼzi hollarda qandli diabet, qon tomirlari va yurak kasalliklari, barcha turdagi endokrin patologiyalar va semirish kasalliklari ham tirnoq plastinkasining notoʻgʻri oziqlanishiga va tirnoqning et ichiga oʻsishiga sabab boʻladi.

BELGILARI

Tirnoqlar et ichiga oʻsishi, yaʼni onixokriptozning beshta asosiy belgisi mavjud boʻlib, ular sizni

TIRNOQ ET ICHIGA OʻSSA...



toʻgʻridan-toʻgʻri kasallikning maʼlum bir bosqichi haqida ogohlantiradi:

- tirnoq yaqinidagi doimiy ogʻriq, ayniqsa, poyabzal kiysangiz va yursangiz ogʻriq kuchli boʻladi;
- qizarish, shishish, ogʻriqli pulsatsiya va yiringli oqindi. Bu tirnoq goʻshtiga infeksiya tushganidan dalolat beradi;
- jarohatlarda yara yuzaga kelishi;
- tirnoq atrofiga xom goʻshtga oʻxshash ortiqcha toʻqimalarning oʻsishi;
- plastinkaning deformatsiyasi, uzunligining qisqarishi va zichligining oshishi, yiring paydo boʻlishi, yumshoq toʻqimalarning qattiqlashishi.

TASHXIS QOʻYISH

Onixokriptozdan shubhalansangiz, avvalo shifokorga murojaat qiling.

Shifokorlar tashxisni iloji boricha aniqroq qilish uchun bir necha oddiy laboratoriya sinovlaridan oʻtishingizni soʻrashadi. Eng birinchi umumiy qon tahlili topshirasiz. Chunki u yalligʻlanishning qaysi bosqichda ekanligini koʻrsatib beradi. Tahlil davomida sizda qandli diabet mavjud yoki yoʻqligini bilish maqsadida qondagi glyukoza miqdori ham tekshiriladi. Koʻpincha kasallikning oxirgi bosqichida jarroh sizdan oyoqning rentgenogrammasidan oʻtishingizni aytadi. Uning yordamida suyakda yiringlash bor yoki yoʻqligi yoki barmoqda suyak oʻsmasi (*otseofit*) aniqlanadi.

Unutmang, agar oyogʻingizda zamburugʻ boʻlsa, zudlik bilan dermatologga murojaat qilib, keng qamrovli davolanish rejimiga rioya qiling.

DAVOLASH

Tirnoq etga qarab oʻsa boshlaganida, ogʻriq kuchli boʻlmagan payt ham ixcham poyabzalni kengrogʻiga almashtirish va imkon qadar yalangoyoq yurish tavsiya etiladi. Agar teri yalligʻlanib, yiring hosil qilgan boʻlsa, avvalo jarohat maxsus eritmalar bilan yaxshilab tozalanadi. Keyin infeksiyaga qarshi turli malhamlar surish tavsiya etiladi. Yiring ketgandan soʻng esa tirnoqning yonlari ehtiyotlik bilan olinib, maxsus tamb qoʻyiladi. Bu tirnoqning yana oʻz holiga qaytishiga yordam beradi. Tamb har oʻn besh kunda almashtiriladi. Jarayon toki tirnoq toʻgʻri oʻsadigan boʻlguncha davom etadi.

Et ichiga oʻsgan tirnoqlardan xalos boʻlish uchun uy sharoitida yettita davolash usuli qoʻllaniladi. Quyida ularni qisqacha tavsiflab beramiz.

Dezinfeksiyalovchi vannalar. Ular kasallikdan tezroq xalos boʻlishingizga yordam beradi. Buning uchun har kuni suvda soda yoki tuzni eritib, unga oyoqlaringizni maʼlum bir muddat solib oʻtiring. Bu muolaja terini yumshatadi va tirnoqni etni jarohatlamay olib tashlashga yordam beradi. Agar oʻsgan tirnoqni olib tashlay olsangiz, jarohat joyini yod bilan artib tashlashni unutmang.

Dorivor kompresslar. Yalligʻlanishni yumshatish uchun moʻljallangan bunday kompresslar shifokor tavsiyasi bilan tayyorlanadi. Bu muolaja uch-toʻrt kun davomida bajariladi. Kompress bir kecha ushlab turiladi. Agar belgilangan vaqt ichida yalligʻlanish oʻtib ketmasa, shifokorga murojaat qiling.

Qaynatilgan suv. Bu faqat kasallik boshlanganda qoʻllaniladi. Shishgan, yalligʻlangan barmoq bir necha soniya davomida juda issiq suvga solinadi. Bu jarayon 10-20 daqiqa davomida takrorlanadi. Muolaja taxminan 20-30 marta qaytarilishi kerak.

Xlorgeksidin eritmasi. Xlorgeksidin bilan steril bint namlanadi va teri yostiqchasi hamda tirnoq orasidagi joyga qoʻllaniladi. Bint qurigandan keyin jarohatga antiseptik bilan ishlov beriladi.

Vishnevskiy malhami. Bu malham infeksiyani bartaraf qilishda samarali taʼsir koʻrsatadi. Bunda jarohatlangan tirnoqqa kechasi vishnevskiy malhami surilib, ertalab olib tashlanadi. Muolaja davomida tirnoq teri yostiqchasi ostidan chiqsa, uni kesib tashlashingiz mumkin.

Ixtiol moyi. Yalligʻlanish, ogʻriq, bakteriyalar va loʻqqilab ogʻrishda yordam beradi. Tarkibida ixtammol va vazelin mavjud. Ertalab tirnoqni kesib olish uchun kechasi mana shu moydan tayyorlangan malhamli bandaj qoʻyiladi.

Lazer muolajasi. Etga oʻsgan tirnoqni davolashdagi eng samarali va kam ogʻriq beradigan usul. Bu usulda tirnoqning etga oʻsgan qismi hamda oʻsadigan qirralari lazer nuri bilan kuydiriladi. Shu orqali tirnoqni olish bilan birga yalligʻlanish oʻchogʻi ham bartaraf etiladi. Bu muolajadan soʻng tirnoqning etga

qarab oʻsishi muammosidan butunlay qutulish mumkin. Biroq bu muolajaning ham bir qancha salbiy taraflari bor. Yaʼni bunda shikastlangan tirnoq atrofining kuyishi, jarohatning sekin bitishiga va uzoq davom etadigan tiklanish jarayoniga sabab boʻladi.

**AGAR BOLADA ONIXOKRIPTOZ
BOʻLSA**

Agar bolangizda onixokriptoz, yaʼni et ichiga oʻsgan tirnoq aniqlansa, uy sharoitida davolanish usullarini sinab koʻrmang, chunki bolalar uchun bunday holat jiddiyroq. Zudlik bilan shifokorga murojaat qilish maqsadga muvofiq boʻladi.

KASALLIKNING OLDINI OLISH

Onixokriptozni oldini olish uchun quyidagi shartlarga rioya qiling:

- faqat qulay poyabzal kiying;
- gigiyena qoidalariga rioya qiling;
- oyoqdagi zamburugʻ kasalligini oʻz vaqtida va toʻgʻri davolang;
- pedikyur asoslarini oʻzlashtiring. Qoidalar qiyin emas, asosiylari quyidagilar:
 - tirnoqlarni yumshatish uchun oyoqning iliq vannasidan foydalaning;
 - tirnoqni toʻgʻri kesing, yonlarigacha olmang;
 - tirnoqlarning uchlari va qirralarini qayta ishlash uchun yumshoq pilkadan foydalaning, shoshilmang, hamma narsani ehtiyotkorlik bilan va xotirjam bajaring;
 - tirnoqni kerakli miqdordan koʻproq qirqib qoʻymang. Yodingizda boʻlsin, tirnoqning erkin qirralari ikki-uch millimetrdan uzunlikda boʻlishi kerak;
 - pedikyur uchun terini yumshatuvchi va tirnoqni yonga oʻsish xavfini kamaytiradigan maxsus suyuqliklardan sotib oling;
 - katta oyoq kiyimlarini kiyish va baland poshnalardan saqlanish tavsiya etiladi (*maksimal balandlik 4 santimetr*);
 - patologiyalar boʻlsa, ortopedik mahsulotlardan foydalanish majburiydir;
 - ortiqcha vazndan xalos boʻling. Chunki semizlik ham koʻp hollarda barmoqlarga yuk boʻlib, onixokriptozni keltirib chiqaradi.

G. HOJIMURODOVA tayyorladi.

ARAVAKASH

– Xola, arava kerakmi?
Pomidor, bulg'or qalampiri xarid qilgan Muruvvat opa unga umid bilan termilib turgan aravakash yigitga qanday javob qaytarishni bilmay, biroz taraddudlandi.
– Hali oladigan narsalarim ko'p edi, o'g'lim, kutib qolasiz-da.
– Mayli, ishim shu-ku, xola.
– Unday bo'lsa, mana bularni aravaga yuklab turing, o'g'lim. Bozorimni qilib bo'lsam, taksilar turadigan joyga olib borasiz.
– Xo'p bo'ladi.
Bo'ychan, yelkasi keng, ammo ozg'inligi sabab yelka suyaklari bo'rtib chiqqan aravakash yigit Muruvvat opa xarid qilgan narsalarni peshma-pesh aravasiga yuklab turdi.
– Xola, banka yopasizmi, bozorni katta qilyapsiz?
– Ha, shakarob, tuzlamalar qilib qo'ysam, qishda asqatadi.
– Bozor qilishga bolalarinigizni olib kelmabsiz-da, yordam berardi.
– Bolalar o'qish, ish bilan band. Ko'cha to'la mashina, deb o'zim kelaverdim. Dam olish kuni bo'lganida, boshqa gap edi.

– Katta o'g'lingiz necha yosh? – qiziqishini qo'ymadi aravakash. – Uylaganmisiz?
– Yigirma beshga to'ldi, to'y qilaylik, desak hali vaqt bor deb, ko'nmayapti. Xudo xohlarsa endi uylaymiz, – xarid qilish barobarida yigitning savollariga erinmay javob qaytarardi opa.
– O'g'lingiz men bilan teng ekan. Men o'n to'qqiz yoshda uylanganman, bitta bolam bor, – faxr bilan ta'kidladi aravakash. – O'g'lingiz shu paytgacha bekor uylanmapti. Kelin sizga yordam berardi.
– O'n to'qqiz yoshda uylanganman, deng?
Muruvvat opa shundagina yigitga e'tibor bilan razm soldi. Tovonlari yorilib ketgan kir oyog'ida yelim shippak, yopishib ketgan yog'lama sochi yaqin orada suv ko'rmagan. Bo'yi novcha bo'lgani uchun enkayib arava tortgani sabab qaddi biroz bukchaygan. Ter hidi anqib turgan egnidagi rangi uniqqan futbolka haqida gapirmasa ham bo'ladi. Yigitdagi achinarli holat opaga ta'sir qilmay qolmadi.
– Qayerdانسiz, o'g'lim?
– Men... – uzoq viloyatning nomini aytdi u.
– Xotiningiz bilan bolangiz ham shahardami?
– Xotinim bozorda qizimni aravachada yetalab qurut, ko'kat sotib yurardi. Ikkisi ham kasal bo'laverganiga uyga jo'natib yubordim. Keyin ijara uyimizda ham sharoit yo'q...
– O'g'lim, hali yosh, Alpomishsifat ekansiz, boshqa bir kasb bilan shug'ullansangiz bo'larkan. Istasangiz o'g'illarim ish topishingizga yordam beradi... – taksilar to'xtash joyiga yetib borgunga qadar unga yo'l-yo'riq ko'rsatib, maslahat berib ketdi Muruvvat opa.
– Shu ishim ham yomon emas, o'zimga yoqadi, – opaning jon kuydirib aytgan so'zlarini beparvo qabul qildi yigit.



Muruvvat opa yigitning xizmat haqqini ortig'i bilan qo'lga tutqazib, duo qilishga tushdi:
– Omdangizni bersin, bolam, Allohim o'zidan o'zgaga muhtoj qilmasin...
Aravakash yigit duoga parvo qilmas, bo'ychan qaddini yanada tik qilib, bo'ynini cho'zgan ko'yi atrofga alanglab, mijoz izlash bilan ovora edi...



Yarim tun. Necha oylardan buyon bedavo dard bilan kurashib yotgan Rahimberdi aka yonida o'tirgan xotinigah behol shivirladi:
– Gulpari qani, chaqir.
– Nima, Gulpari deysizmi? – shoshib qoldi Tuhfa opa. – Hozir chaqiraman, biroz dam ol degandim.
U "tinchlikmi, nimaga?", deb so'ragisi keldi-yu, erining ayni holatiga bu savol nojo'ya ekanini anglab, qiya ochiq eshikdan asta qizini chaqirdi. Yon xonada yotgan Gulpari darhol otasi qoshida bo'ldi.
– Dadajon, yaxshimisiz, oyoqlaringizni uqalaymi?
– Yo'q, butun vujudim qaqshayapti, qo'l tegsa og'riydi, chin dunyoga ketishim yaqin chog'i. Tezroq dardlardan qutulsam edi.
– Jon dada, unday demang, – yig'lab yubordi qizgina. – Onam ikkimizni qanday tashlab ketasiz.

– Yolg'iz emassiz, opalaring bor, qizim.
– Sizning o'rningizni hech kim bosolmaydi. Opalarim uzoqda, bir oyda bir keladimi, yo'qmi, – ayrilqni sezgandek yig'idan to'xtamasdi Gulpari.
– Seni shuning uchun chaqirdim, qizim. Onang ikkingizga vasiyatim bor. So'zimni bo'lmay eshitinglar. Avval bir qultum suv ber.
– Hozir, hozir, dadajon.
Tuhfa opa Rahimberdi akaning yostig'ini ko'tardi, Gulpari piyoladagi suvni uning og'ziga tutdi.
– Xudo sizlardan rozi bo'lsin, menga juda yaxshi qaradilaring, – biroz tin olib so'zida davom etdi Rahimberdi aka. – Alloh peshanamga o'g'il bermadi, tug'ilganlari ham turmadi. Qizlarim borligiga shukur. Ammo opalaring kabi sen ham uzoqqa kelin bo'lib ketsang, onang yolg'iz qoladi. Keyin ota joyimda chirog'imni yoquvchi avlodim

LAFZ

qolsa deyman. Bu uy-joylar bobolarimdan meros, aslo sotilmasligi kerak. Shuning uchun va'da ber, qizim, shu qishloqqa kelin bo'lib, onangning yaqinida bo'l. Necha yildirki Xudodan shuni so'rayman, kenja qizimsan axir.

– Men... – yig'idan o'zini to'xtatolmasdi Gulpari. – Men opalarim kabi sizning duolaringiz bilan oila qurishni istayman.
– Qazoga chora yo'q, qizim. – Rahimberdi akaning ko'zidan ham milt-milt yosh oqardi.
– Biroq niyatimni amalga oshirishga senda imkon bor, bolam...
Kenja qiz otasiga va'da berdi. Shu kuni tongga yaqin oila boshlig'i Allohga omonatini topshirdi.

* * *

– Soyning u tomonidan kelayotgan sovchilarga hech gap uqitirib bo'lmayapti, o'n marta keldiyov, – yalinchoq ohangda qiziga termuldi Tuhfa opa. – Yigit bilan gaplashib, yo'q qilmasang bo'lmaydi. Sovchilardan charchab ketdim, qizim. Qaydanam o'sha tomonga to'yga bording. Yigit seni ko'rgandan buyon boshqasiga uylanmayman debdi.

– Ish joyimga necha marta keldi, gaplashishni istamadim.
– Unday qilma, jon bolam. Meni ham o'ylagin. Qishloqdagi sovchi qo'ygan yigitlar senga yoqmayapti. Kimni kutyapsan, bilmadim. Yoshing katta bo'lib qolyapti.

– Mayli, uchrashib ko'raman, yoqsa shartlarimni aytaman. Ko'nsa...

Gulpari oshig'i devona – Vosid bilan uchrashdi. Yigit-qiz har tomonlama bir-biriga munosib edi. Vosid Gulparining shartlarini e'tibor bilan tingladi.

– Xuddi siz aytgandek bo'ladi, faqat... – qizning ko'ngliga yo'l izlay boshladi yigit.
– Faqat farzandli bo'lgunimizcha ota-onam oldida bo'lamiz. Keyin...

– Lafzingizda turasizmi, va'da berasizmi?

– Albatta, siz uchun hamma narsaga tayyorman...

Ko'p o'tmay to'y bo'ldi. Gulpari tushgan joy harqalay opalari kelin bo'lgan qishloqlardan ancha yaqin edi. U onasidan tez-tez xabar olib turdi. Baxtli turmushi davomida birin-ketin o'g'il-qizlar dunyoga keldi. Farzandlari oyoqqa tura boshladi. Lekin Gulpari qancha eslatmasin, eri va'dasini bajaray demasdi. Onasini o'ylab bedor yashayotgan juvon halovatsiz edi. Kundan-kun keksayib borayotgan Tuhfa opa esa keng hovlida bir o'zi yolg'iz, qizlari yo'lga kechayu kunduz ko'z tutar, ba'zida ko'ksi to'lib yig'lab olardi.

Shunday kunlardan birida Vosidning onasi bilan suhbatini nogahon Gulparining qulog'iga chalindi:

– Anavinging gapini qarang, – gap Gulpari haqida ketardi. – Onasining oldiga borib, bir muddat birga yasharkanmiz. Keyin katta o'g'limizni o'sha yerga uylab, ortga qaytarkanmiz. Sizlarning oldingizda akalarim borligi, onasi yolg'izligini eslataveradi.

– Hech qayerga bormaymiz, demadingmi? – Qaynonasining ovoz pardasidan vajohati sezilib turardi. – Yolg'iz emish... Boshqa qizlari kelib birga yashasin, senga osilmasin.

– Aya, uning aytganini kim qilardi...

Qaynonasining noinsofligi-yu, erining nopisandligidan Gulparining vujudi muzlab ketdi. U ertasiga muloyimlik bilan erining va'dasini – lafzini eslatdi. Vosidning kesakdek qotib turishidan sezidiki, foydasi yo'q. "Erimku nomardlik qildi, ammo men otamga bergan va'damni bajarishim shart!", so'nggi qarorga keldi juvon.

Ertasigayoq Gulpari bolalari bilan onasi oldiga qaytdi. Eri uni ortga qaytarish uchun turli choralar qo'lladi. Gulparining bag'ridan bolalarini yulib olib, qayta unga yaqinlashtirmadi. Hammasi befoyda ketgach, g'azabi toshib, zug'um qilishga o'tdi. Gulpari barcha sinovlarga chidadi, ammo qaytib lafzsiz er bilan birga yashamadi. Hayot Vositga ham yolg'izlikni "in'om" etdi, boshqa oila qurolmadi.

Yillar o'tib, Gulpari xola nabirasini ota hovlisiga uyladi, otasiga bergan lafzining ustidan chiqdi. Saksandan oshgan Gulpari momo ayni fursatda nabirasi ardog'ida, evaralari davrasida keksalik gashtini surmoqda.

Taekvondo

Meksikaning Gvadalaxara shahrida taekvondo WT bo'yicha jahon chempionati o'tkazildi. Unda O'zbekiston terma jamoasi tarixiy muvaffaqiyatga erishdi, ya'ni taekvondochilarimiz barcha dunyo birinchiliklaridagi eng yuqori natijasini qayd etishdi. Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakili Svetlana Osipova esa jahon chempioni bo'ldi! U bu muvaffaqiyatga yurtimizda O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kunning 31 yilligi katta bayram qilinayotgan onlarda erishdi!

Epidemiologik murakkab vaziyat sabab taekvondo WT bo'yicha bu galgi dunyo birinchiligi uch yillik tanaffusdan so'ng tashkil etildi. Meksikaning Gvadalaxara shahri mezbonlik qilgan XXV jahon chempionati 122 ta mamlakatning 700 nafardan ziyod eng kuchli taekvondochilarini o'zida jamladi. Bahslar "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga yo'llanmalar taqsimlanishini belgilovchi qimmatli reyting ochkolari uchun ham kechdi. Xususan, g'olibga 140.00 reyting ochkosi berilgan bo'lsa, kuchli beshlikdan joy olgan sportchilar o'z hisoblarini 30.24dan 84.00gacha bo'lgan ochkolar bilan boyitishdi. Shu bois bu galgi dunyo birinchiligiga bo'lgan muxlislar tomonidan qiziqish ham yanada yuqori bo'ldi. Mazkur musobaqada O'zbekiston terma jamoasi to'liq tarkibda ishtirok etdi.

ERKAKLAR:

- 54 kg: Jahongir Xudoyberdiyev
- 58 kg: Amir To'rayev
- 63 kg: Niyaz Po'latov (MVSM)
- 68 kg: Ulug'bek Rashitov (MVSM)
- 74 kg: Jasur Jaysunov (MVSM)
- 80 kg: Shuhrat Salayev
- 87 kg: Nikita Rafalovich (MVSM)
- +87 kg: Marat Mavlonov

AYOLLAR:

- 46 kg: Zuhra Tojimatova
- 49 kg: Zamigor Husniddinova
- 53 kg: Sitora Ergasheva
- 57 kg: Madina Mirabzalova
- 62 kg: Feruza Sodiqova
- 67 kg: Ozoda Sobirjonova
- 73 kg: Saodatbegim Aliyeva
- +73 kg: Svetlana Osipova (MVSM)

Shuhrat Salayev, Nikita Rafalovich, Svetlana Osipova va Feruza Sodiqovadan

ARMIYA SPORTCHISI JAHON CHEMPIONI!

boshqa barcha 12 nafar sportchimiz kattalar o'rtasidagi jahon chempionatida ilk bor qatnashishi edi. Shunga qaramay taekvondochilarimiz bu galgi dunyo birinchiligida yuksak natijaga, tarixiy muvaffaqiyatga erishishdi.

Yana shuni alohida ta'kidlash joiz, joriy yilning yoz faslida Janubiy Koreyada taekvondo WT bo'yicha XXV Osiyo chempionati o'tkazilgan va unda terma jamoamiz a'zolari 4 ta oltin, bitta kumush hamda 2 ta bronza, jami 7 ta medalga sazovor bo'lgan, qo'lga kiritilgan 4 ta oltin medalning 3 tasiga MVSM vakillari erishgandi. Shu bois dunyoning bir qator taekvondo mutaxassislari jahon chempionatiga hozirlik ko'rish jarayonida, ya'ni o'z vakillarini bahslarga tayyorlash davomida bizning sportchilarimizning uslubiy mahoratlarini o'rganishga ham alohida e'tibor qaratishdi. Bu Gvadalaxara shahri sport majmuida vakillarimiz ishtirokida kechgan bahslar mobaynida ham yaqqol sezildi.

Xususan, mutaxassislar erkaklar o'rtasidagi 68 kg vazn toifasi bo'yicha bahslarda Tokio Olimpiadasining ikki finalchisi Ulug'bek Rashitov va britaniyalik Bredli Sindenni jahon chempionatida ham o'zaro qarama-qarshi kelishini oldindan bashorat qilishgandi. Lekin ozarbayjonlik Javad Agayevga qarshi kechgan shiddatli jangda MVSM vakili hisobda oldinda (5:3) borayotgan bir vaziyatda, boz ustiga bahs yakuniga 5 soniya qolganda kutilmagan zarba o'tkazib yubordi. O'z navbatida, Ulug'bekning zarbasiga chap berishga ulguragan ozarbayjonlik sportchi chempionat yakunida bronza medaliga ham musharraf bo'ldi. Bu holatni mutaxassislar Javad Agayevning "Tokio – 2020" yozgi Olimpiya o'yinlari chempioni Ulug'bek Rashitov

uslublariga qarshi ustozlari bilan birgalikda avvaldan alohida tayyorgarlik ko'rganligi bilan izohlashdi.

Rashitovning dunyo birinchiligidagi kutilmagan omadsizligini terma jamoamiz safidagi MVSMning boshqa vakillari o'z muvaffaqiyatlari bilan yopishdi. Xususan, -63 kg vazn toifasi bo'yicha bahslarda qatnashgan armiyamiz taekvondochisi Niyaz Po'latov dastlab ozarbayjonlik Hamidrizo Sadrini mag'lubiyatga uchratdi. Shundan so'ng u Misr, Eron, Xorvatiya va Ispaniya vakillaridan ustun kelib, finalga chiqdi. Sportchimiz oltin medal uchun hal qiluvchi jangni xitoylik Liang Yushuaiga qarshi o'tkazdi va kichik hisobda imkoniyatni boy berib, kumush medalni qo'lga kiritdi.

MVSMning boy tajribaga ega taekvondochisi Nikita Rafalovich (-87 kg) esa bu galgi jahon chempionati bahslarini polshalik Adrian Voytkovyakka qarshi boshladi. Undan ustun kelgan Rafalovich bronza medaligacha bo'lgan yo'ldagi qolgan raqiblarini ham mag'lub etdi. U final ostonasida amaldagi jahon chempioni serbiyalik Mehdi Hodabaxshiga ro'baro' keldi va imkoniyatni boy berib, bronza medalini bilan kifoyalandi.

Qizlar o'rtasidagi bahslarda qatnashgan hamyurtimiz Feruza Sodiqova (-62 kg) ham jahon chempionati sovrindorlari safidan joy oldi. Feruza yarim finalda gretsiyalik Teopoula Sarvanakiga final sari yo'l berdi va o'zi bronza medalini bilan taqdirlandi. Hamyurtimiz to'sig'idan o'tgan Sarvanaki esa finalda belgiyalik Charridan mag'lubiyatga uchradi.

XXV jahon chempionatida terma jamoamizning tarixiy muvaffaqiyatga erishishida MVSM vakili Svetlana Osipovaning yutug'i muhim ahamiyat kasb etdi. +73 kg vazn toifasida bahs olib borgan vakilimiz musobaqaning saralash bosqichidan so'ng AQSh vakilasi ustidan g'alaba qozondi, chorak finalda Marokash, yarim finalda avstriyalik raqiblarini tomoshabinlar safiga kuzatib qo'ydi. Osipova finalda isroillik Dana Arzanga qarshi bahs olib bordi. Chempionlik uchun ushbu jang o'ta murakkab kechdi. Birinchi raund teng kurashlar ostida o'tdi, ikkinchi va uchinchi raundlarda Svetlana ustunlikka erishdi va raqibasini 2:1 hisobida mag'lub etib, musobaqaning oltin medaliga sazovor bo'ldi. Ushbu muvaffaqiyat bilan Svetlana Osipova yurtimiz xotin-qizlari orasida birinchi bo'lib jahon chempionligiga erishgan taekvondochi sifatida mamlakatimiz sporti tarixidan joy oldi. U bu muvaffaqiyatga yurtimizda O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kunning 31 yilligi katta bayram qilinayotgan onlarda erishdiki, bundan musobaqani teleekran qarshisida kuzatayotgan vatanparvar sportsevarlarimiz ko'ngillari junbushga keldi, bexosdan o'rinlaridan sakrab turib, ko'zlari sevinch ko'zyoshlariga to'lgan holda Vatanimiz bayrog'ini boshi uzra baland ko'targancha uni butun dunyoga namoyish etayotgan Svetlanani, armiyamiz sportchisini olqishlashga tushishdi! Barakalla, Svetlana!

Ha, Meksikada o'tkazilgan XXV jahon chempionatida yurtimiz taekvondochilari yuqori mahorat namoyish etishdi va o'zlarining barcha dunyo birinchiliklari mobaynidagi eng yaxshi ko'rsatkichiga erishishdi – bittadan oltin va kumush, 2 ta bronza, jami 4 ta medalga sazovor bo'lishdi. Ushbu tarixiy muvaffaqiyatda armiyamiz taekvondochilarining ulushi katta bo'ldi, sovrinlarning uchtagiga MVSM vakillari erishdi.

XXV JAHON CHEMPIONATI SOVRINDORLARI

- Oltin medal sohiblari:**
- +73 kg: Svetlana Osipova (MVSM)
- Kumush medal:**
- 63 kg: Niyaz Po'latov (MVSM)
- Bronza medal:**
- 87 kg: Nikita Rafalovich (MVSM)
- 62 kg: Feruza Sodiqova



Og'ir atletika

5-16-dekabr kunlari Kolumbiyaning Bogota shahrida og'ir atletika bo'yicha 87-jahon chempionati bo'lib o'tadi. Tarkibidan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) polvonlari ham o'rin olgan O'zbekiston terma jamoasi a'zolari mazkur dunyo birinchiligi oldidan Turkiyada o'quv-mashg'ulot yig'ini olib bordi va xalqaro turnirda ham qatnashib, ajoyib yutuqlarga erishdi.

TAYYORGARLIK

Bundan avvalgi, ya'ni og'ir atletika bo'yicha 86-jahon chempionatiga 2021-yil poytaxtimiz Toshkent mezbonlik qilgan va yakunda u dunyo sport mutaxassislari tomonidan xalqaro sport olamining o'ziga xos voqeasi, ya'ni epidemiologik murakkab vaziyatga qaramay, 74 davlatdan 408 nafar sportchi qatnashuvdagi har tomonlama yuksak saviyada tashkil etilgan musobaqa sifatida baholandi. Toshkent supasidagi bahslar davomida sportchilar tomonidan 13-marta jahon rekordi o'rnatilishi esa e'tirof etuvchi mutaxassislarning fikr va baholariga isbot sifatida xizmat qilgandi. Yurtimiz ilk bor mezbonlik qilgan mazkur jahon chempionatining sportimiz tarixiga oid yana bir muhim jihati 5 ta oltin, 5 ta kumush va 2 ta bronza, jami 12 ta medalni jam'argan O'zbekiston erkaklar terma jamoasi umumjamoasi hisobida dunyo miqyosida 1-o'rinni egallagandi. Xo'sh, og'ir atletikachilarimiz bu yil ham o'sha muvaffaqiyatni takrorlay oladimi? Dunyo birinchiligiga tayyorgarlik qanday olib borildi?

Avvalo shuni ta'kidlash joiz, yana ikki yildan keyin Parijda o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarining og'ir atletika bo'yicha bahslarida 120 nafar sportchi qatnashishi belgilangan va ular 10 ta medallar jamlanmasi uchun bahs yuritadi. Vaholanki, Tokio Olimpiadasida 196 nafar og'ir atletikachi 14 ta medallar jamlanmasi uchun kurashgan edi. "Parij - 2024" yozgi Olimpiada o'yinlarida og'ir atletikachilarning yo'llanmalar soni 76 taga qisqarishi, da'vogarlarning esa ortishi sportchilarni ham, Xalqaro og'ir atletika federatsiyasi (IWF) mutaxassislarni ham murakkab vaziyat va shiddatli jarayonlarga solib qo'ydi. Bu, o'z navbatida, IWF tomonidan saralash musobaqalarini yangicha formatda tashkil etishni taqozo etmoqda. Bundan joriy yil 5-16-dekabr kunlari Kolumbiyaning Bogota shahrida o'tadigan jahon chempionati ham xoli emas va u og'ir atletikachilar uchun "Parij - 2024" yozgi Olimpiada o'yinlarining ilk saralash musobaqasi sifatida ham xizmat qiladi.

Mazkur jahon chempionatida O'zbekiston terma jamoasi katta tarkibda ishtirok etadi. Bosh murabbiy Bahrom Mendiboyev va murabbiylar shtabi unda qatnashish uchun 11 nafar sportchini tanlab oldi. Ular safidan MVSM vakillari, xususan Rio va Tokio Olimpiadasi g'oliblari hamda jahon chempionlari Ruslan Nuruddinov va Akbar Jo'rayev ham o'rin olgan.

TO'LIQ TARKIB:

- 67 kg: Adhamjon Ergashev (MVSM)
- 67 kg: Doston Yoqubov
- 73 kg: Og'abek To'xtayev
- 81 kg: Muhammadqodir Toshtemirov
- 89 kg: Sarvarbek Zafarjonov (MVSM)
- 102 kg: Sharofiddin Amriddinov
- 109 kg: Ruslan Nuruddinov (MVSM)
- +109 kg: Akbar Jo'rayev
- 55 kg: Nigora Abdullayeva
- 81 kg: Rigina Adashboyeva
- 87 kg: Tursunoy Jabborova

O'zbekiston terma jamoasi "Parij - 2024" yozgi Olimpiada o'yinlariga muhim reyting ochkolarini taqdim etadigan 87-jahon chempionatiga tayyorgarlikning so'nggi bosqichini Turkiyada olib bordi va deyarli bir oy mobaynida Antalya shahrida o'quv-mashg'ulot yig'ini o'tkazdi. Yig'in mobaynida polvonlarimizning ba'zilar Turkiyada o'tkazilgan uch karra Olimpiada chempioni Naim Sulaymonov g'lu xotirasiga bag'ishlangan xalqaro turnirda ham ishtirok etishdi. Qayd etish joiz, mazkur xalqaro turnir

MAROMIDA



murabbiylar shtabi uchun n a z o r a t , sportchilar uchun o'ziga xos ko'rik vazifasini o'tadi. Shunga qaramay og'ir atletikachilarimiz turnirda ajoyib muvaffaqiyatga erishishdi. Xususan, -55 kg vazn toifasi bo'yicha bahslarda qatnashgan sportchimiz N i g o r a Abdullayeva dast ko'tarishda 85 kg, siltab ko'tarishda 107 kg, umumhisobda 192 kg.lik natija bilan mutlaq chempionlikka erishdi. Hamyurtimiz Tursunoy Jabborova esa eng og'ir (+87) vaznlilar o'rtasidagi bahslarda 239 (108+131) kg natija bilan ushbu muvaffaqiyatni takrorladi. Xalqaro turnirning so'nggi kuni Rigina Adashboyeva (-87 kg) ham shohsupaga ko'tarildi. Dast ko'tarishda 98 kg natija ko'rsatib, oltin medalni qo'lga kiritgan Rigina siltab ko'tarishda 121 kg.lik natija bilan bronza medallik bo'ldi. Umumhisobda 219 kg.lik natija ham hamyurtimizga turnirning yana bitta bronza medalini tortiq etdi. Yakunda O'zbekiston ayollar terma jamoasi umumjamoasi hisobida 2-o'rinni egalladi. Nigora Abdullayeva esa "xalqaro turnirning ayollar o'rtasida eng yaxshi sportchisi" deb topildi.

Terma jamoamiz murabbiylari mazkur xalqaro turnirning erkaklar o'rtasidagi bahslarida ikki nafar og'ir atletikachimizni ham sinab ko'rishga qaror qilishdi. -73 kg vazn toifasida bahslarda qatnashgan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili Adhamjon Ergashev dast ko'tarish bo'yicha (131 kg) bronza, siltab ko'tarish (176 kg) va ikki kurash bo'yicha (307 kg) kumush medallarni qo'lga kiritdi. Hamyurtimiz Muhammadqodir Toshtemirov (-81 kg) esa o'z vazn toifasi bo'yicha bahslarning barcha yo'nalishida (153+184 = 337 kg) zafar qozonib, xalqaro turnirning 3 ta oltin medaliga sazovor bo'ldi.

Antalya shahrida navbatdagi o'quv-mashg'ulot yig'ini yakunlagan og'ir atletikachilarimiz Turkiyadan Kolumbiyaning Bogota shahri tomon yo'l olishdi.

SHOHSUPA

(xabarlar)

DZYUDO

Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakili Diyora Keldiyorova (-52 kg) nufuzli turnirlarda ketma-ket erishgan zafarlari evaziga yaqinda Davlat Bobonov (-90 kg) kabi o'z vaznida Xalqaro dzyudo federatsiyasi (IJF) reytingida peshqadamga aylangandi. IJF o'smir va yoshlarning ham yangilangan reytingini e'lon qildi. Yosh dzyudochilarimizning 5 nafari, ya'ni Barchinoy Qodirova (-70 kg), Laziza Haydarova (-40 kg), Jahongir Mamatrahimov (-90 kg), Azizbek Ortiqov (-66 kg), Islombek Ravshanqulov (+100 kg) o'z vaznlarida jahon reytingida karvonboshilik qilmoqda.

QILICHBOZLIK

Poytaxtimizda qilichbozlik bo'yicha o'smir qizlar o'rtasida o'tkazilgan Jahon kubogi bosqichi musobaqalari poyoniga yetdi. Shpaga yo'nalishi finalida Qozog'istonni, sablya yo'nalishida Turkiyani mag'lub etgan O'zbekiston o'smir qizlar terma jamoasi umumjamoasi hisobida 1-o'rinni egalladi. Kumush va bronza medallariga shpaga bo'yicha Qozog'iston va Qirg'iziston, sablya yo'nalishida Turkiya hamda Ruminiya terma jamoalari erishdi.

O'Q OTISH

Janubiy Koreyada 20 ga yaqin mamlakat yoshlari o'rtasida o'tkazilgan o'q otish sporti bo'yicha 15-Osiyo chempionatida vakillarimiz munosib qatnashdi. 18 yoshli sportchilar o'rtasida 10 metrga pnevmatik to'pponchadan otish bahslarida Veniamin Nikitin kumush, 20 yoshlilar o'rtasidagi 10 metri nishonga o'q otish bahslarida Muhammad Kamolov bronza medaliga sazovor bo'ldi. Veniamin Nikitin, Sodiqjon Abdullayev hamda Muhammadyusuf Haydarovdan iborat uchlik esa o'smirlar o'rtasidagi jamoaviy dasturda bronza medal sohibiga aylandi.

TENNIS

Slovakiyaning Bratislava shahrida tennis bo'yicha mukofot jamg'armasi 60 ming dollardan iborat ITF tasnifidagi turnirda 50 ga yaqin mamlakatning 491 nafar raketka ustasi ishtirok etdi. Saralash bahslarida Ukraina, Slovakiya, Vengriya va Chexiya vakillarini mag'lub etgan hamyurtimiz Nigina Abduraimova turnirning vitse-chempionligiga erishdi. U bosh sovrin uchun final bahsida xorvatyalik Ana Konyuxga 6/2, 0/6, 6/7(2) hisobida imkoniyatni boy berib qo'ydi.

SAMBO

Qirg'iziston poytaxti Bishkek shahri mezbonlik qilgan sambo bo'yicha jahon chempionatida 50 ga yaqin mamlakat sambochilari qatnashib, g'oliblik uchun o'zaro bellashishdi. Chempionatda qatnashgan 17 nafar sambochimizdan 5 nafari sovrindorlar safidan joy oldi, ya'ni bitta kumush va 4 ta bronza medal qo'lga kiritildi.

FUTBOL

O'zbekiston milliy terma jamoasi poytaxtimizda ikkita o'rtoqlik uchrashuvi o'tkazdi. Bosh jamoamiz dastlab Qozog'iston terma jamoasiga qarshi maydonga chiqdi. Ushbu jamoalar shu paytga qadar turli doiradagi musobaqalarda olti marta o'zaro qarama-qarshi kelgan, uning 3 tasida durang qayd etilgan, 2 ta uchrashuvda vakillarimiz, bitta o'yinda qo'shnilarimiz g'alaba nashidasini surgan edi. Yettinchi o'yin O'zbekiston milliy terma jamoasining ustunligida o'tdi. 12-daqiqada Hojimat Erkinov hisobni ochgan bo'lsa, birinchi bo'limning so'nggi daqiqasida Eldor Shomurodov tomonidan kiritilgan gol uchrashuv 2:0 hisobida O'zbekiston terma jamoasining g'alabasi bilan yakunlanishiga olib keldi. O'zbekiston va Rossiya terma jamoalari o'rtasida o'tkazilgan o'rtoqlik uchrashuvida esa hisob ochilmadi - 0:0.

Harbiy texnika

ҲАМКОРЛИКДА**«Тигон» деб номланган яратилган машина**

«Тигон» деб номланган сузувчи зирҳланган жанговар машина (ғилдираклар формуласи 6 x 6) Жанубий Кореянинг «Ханва дефенс системз» ва Малайзиянинг AVP компаниялари мутахассислари ҳамкорлигида шу типдаги «Блэк Фокс» машинаси асосида яратилган. Янги машина янада яхшиланган юриш (айниқса, ўнқир-чўнқир жойлардан) ва фойдаланиш тавсифларига эга. «Тигон» қуввати 525 от кучига эга бўлган «Катерпиллер» типдаги дизель двигатели ва «Алиссон» 4 500 SP сериясидаги автоматик трансмиссия билан жиҳозланган. Механик-ҳайдовчининг ўриндиғи машинанинг олд ўнг томонида жойлашган, унинг ўнг томонига эса кучланиш қурилмаси ўрнатилган. Жанговар оғирлиги 21-22 тоннани (комплектацияга боғлиқ равишда) ташкил этувчи машина шоссе бўйлаб ҳаракатланишда максимал тезликни соатига 110 км.гача (сузишда – соатига 10 км.гача) етказишга қодир. Корпуснинг том қисмига 12,7 мм.ли пулемётга эга бўлган масофадан бошқарилувчи қурол модули ўрнатилган. «Тигон»нинг зирҳи ва ўзига хос конструктив хусусиятлари шахсий таркиб ҳамда узел ва агрегатларни ўқотар қуроллар ўқи, артиллерия снарядлари парчалари, шунингдек, миналар ва қўлбола портловчи мосламалар зарбидан ҳимояланишни таъминлайди. БТР вариантыдаги бу машина барча керакли анжомлар билан тўлиқ таъминланган 11 нафар пиёда аскарларни олиб юриш имконига эга. Ишлаб чиқувчи мутахассислар таъкидлашича, «Тигон»ни 30 мм.ли автоматик тўп ёки 90 мм.ли тўп билан жиҳозлаш учун техник имкониятлар ҳам мавжуд. Машина баландлиги 0,5 метргача бўлган тик девор ва кенглиги 1,2 метргача бўлган зовурларни енгиб ўтишга қодир.



БТР вариантыдаги бу машина барча керакли анжомлар билан тўлиқ таъминланган 11 нафар пиёда аскарларни олиб юриш имконига эга. Ишлаб чиқувчи мутахассислар таъкидлашича, «Тигон»ни 30 мм.ли автоматик тўп ёки 90 мм.ли тўп билан жиҳозлаш учун техник имкониятлар ҳам мавжуд. Машина баландлиги 0,5 метргача бўлган тик девор ва кенглиги 1,2 метргача бўлган зовурларни енгиб ўтишга қодир.


НОВЫЙ**транспортный самолёт**

Транспортный самолёт (ТС) CMV-22B «Оспрей»

разработан специалистами корпорации «Боинг» и компании «Белл текстрон» для замены палубных транспортных самолетов типа C-2A «Грейхаунд» авиации ВМС США. Опытный образец совершил первый полет в январе 2020 года. Данный самолёт выполнен на основе модификации MV-22B (транспортно-десантный для морской пехоты) и отличается от предшественника наличием увеличенного грузового отсека, конформных топливных баков большего объема, что позволяет повысить радиус действия с 1600 до 2130 км, а также наличием усовершенствованных средств связи. Максимальная масса полезной нагрузки 9070 кг. CMV-22B «Оспрей» способен перевозить груз массой 2,6 тонн на расстояние до 2130 км. Длина самолёта 17,5 метра, высота 6,7 метра, размах крыла 14 метров. Силовая установка состоит из двух двигателей типа AE1107C фирмы «Роллс-Ройс» мощностью по 6200 л.с., расположенных на законцовках крыла в гондолах, которые могут поворачиваться почти на 98°. Максимальная взлетная масса составляет 27,4 тонн при взлете с коротким разбегом и 23,8 тонн – при вертикальном. В самолетном режиме «Оспрей» может выполнять полеты на скорости 446 км/ч на расстояние до 1600 км. Практический потолок 7620 метров. Рассчитан на перевозку до 24 военнослужащих или грузов массой до 9 тонн в грузовом отсеке или до 6,8 тонн на внешней подвеске. Экипаж 3-4 человека.

**РАЗВЕДКАЧИ****роботлар**

Франция армиясининг Қуруқликдаги қўшинларини сунъий интеллектдан фойдаланувчи ғилдиракли ва гусеничали разведкачи – роботлар билан таъминлаш режалаштирилган. Маълумотларга кўра, мамлакат мудофаа вазирлиги томонидан тегишли компаниялар билан 56 та аппаратдан иборат бўлган дастлабки партияни етказиб бериш бўйича дастлабки шартнома имзоланган. Бу роботлар аввал қуроллар бош бошқармаси мутахассислари томонидан синовлардан ўтказилади, сўнгра янги тактик жанговар тизим яратишни кўзда тутувчи «Скорпион» дастури доирасида армия ихтиёрига етказиб берилади. Ҳозирда гап асосан учта модель ҳақида бормоқда. Уларнинг энг кичиги – оғирлиги 3 кг.ли NERVA S иншоотнинг ички ва ташқи қисмида қўлланиши мумкин. Аппарат бир неча метр баландликдан йиқилишга чидамли, уни деразадан ичкарига отиш ёки ҳаракатланаётган автомобилдан ерга ташлаш мумкин. Аппарат тунги кўриш камераси билан жиҳозланган бўлиб, у планшет, смартфон ёки компьютер орқали бошқарилиши мумкин. Иккинчи модель – NERVA LG (оғирлиги 5 кг) S варианты тавсифларидан ташқари, қўшимча иккита ғилдирак, юқори ечимли 4 та камера, микрофон ва узатгич билан жиҳозланган. Бу робот видеомаълумотлар асосида жой харитасини чизиши мумкин. Ундан нафақат разведка, балки қўлбола портловчи моддаларни зарарсизлантириш мақсадида ҳам фойдаланиш мумкин. Энг оғир модель – NERVA XX/Cameleon-LG (оғирлиги 15 кг) турли предметларни ушлаш ва суриш, уларнинг жойини ўзгартириш имконини берувчи шарнирли манипулятор билан жиҳозланган. Сўнги икки модель инсон иштирокисиз фаолият олиб бориши, шу жумладан, объект периметри бўйлаб патруллик қилиши ҳамда мустақил равишда дастлабки ташланган жойга қайтиб келиши мумкин.

**ТАНКОВЫЙ****минный трал**

Разработанный польскими специалистами танковый минный трал «Кайлер» предназначен для проделывания проходов в минно-взрывных заграждениях и разминирования местности. Платформа трала – усовершенствованное шасси среднего танка M48. Оснащен немецким двигателем жидкостного охлаждения с турбонадувом MTUMB871 Ka 501 мощностью около 986 л.с. Скорость движения при разминировании составляет от 0,2 до 4 км/ч, длина проделываемого в минном поле сплошного прохода (шириной 4,7 м) 120 метров в течение 10 минут. При проделывании прохода трал, представляющий собой опускаемую раму, переводится в рабочее положение перед корпусом машины, вал начинает вращательное движение, а закрепленные и сбалансированные на нем 24 ударных элемента вспахивают почву на глубину около 25 см, разрушая механически, вызывая детонацию взрывчатого вещества или сбрасывая с прохода заглубленные или установленные на грунт мины. В процессе работы автоматическая система машины расставляет за собой маркеры, обозначающие границы площади разминирования. В походном положении минный цепной трал размещается над корпусом. В качестве пассивной защиты используются дымовые гранаты, пусковые установки которых размещены на корпусе трала. Экипаж машины два человека – командир и механик-водитель. Эффективность разминирования составляет 98 процентов. Однако, в связи с разбросом в процессе траления взрывоопасных предметов на неконтролируемое расстояние, трал можно использовать только в том случае, если за ним не движется пехота и не идет легкая небронированная техника.



Sana

Sport

MUNOSIB HISSA

1991-yil 23-noyabrda bo'lib o'tgan Armiya, aviatsiya va flotga ko'maklashuvchi butunittifoq ko'ngillilar jamiyatining VIII Qurultoyi qarori bilan O'zbekistondagi DOSAAF negizida O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tashkil etilgan edi. Ushbu sana munosabati bilan "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashida tantanali tadbir o'tkazildi.



jumladan, tashkilot yuz minglab yoshlarni turli harbiy va texnik mutaxassisliklarga tayyorlagani hamda ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalab, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda munosib hissa qo'shganligini bildirdi. Shuningdek, "Vatanparvar" tashkiloti jahon arenalarda mamlakatimiz sharafini munosib himoya qilgan yuzlab mohir sportchilarni yetishtirgani esa nafaqat respublikamiz, balki xalqaro sport tashkilotlari tomonidan to'la e'tirof etilmoqda.

Videoanjuman shaklida o'tgan tantanali marosimda "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi apparati, tashkilot huzuridagi muassasalar va joylardan hududiy kengashlar xodimlari hamda tashkilot tizimida uzoq yillar davomida ishlagan mehnat faxriylari ishtirok etdi.

Tadbirda "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov so'zga chiqib, tashkilot tizimida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlarni qutladi. O'z nutqida u respublika mustaqilligining tengdoshi hisoblangan "Vatanparvar" tashkiloti 31 yillik faoliyati davomida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiy etishiga o'zining ulkan hissasini qo'shganligini,



Tadbir davomida "Vatanparvar" tashkiloti tizimida samarali mehnat qilib kelayotgan bir qator xodimlar va bir necha yillar ilgari mehnat qilib, hozirda nafaqada bo'lgan faxriylarga faxriy yorliqlar va qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Shuningdek, "Vatanparvar" tashkiloti faoliyati to'g'risida ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishida ulkan hissa qo'shib kelayotgan Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti bosh mutaxassisi Qahramon Haydarov "Vatanparvar" tashkilotiga 30 yil" esdalik belgisi bilan va ushbu departament bo'lim boshlig'i kapitan Mirjalol Rayimov tashkilot markaziy kengashi raisi faxriy yorlig'i bilan taqdirlandilar.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

MUDOFAA VAZIRLIGI JAMOASI SOVRINDOR

Bir necha yildirki, O'zbekiston Respublikasi sportni rivojlantirish vazirligi tashabbusi bilan bosh vazir kubogi uchun futbol musobaqalari o'tkazib kelinmoqda.



Bu yil esa avvalgilardan farqli o'laroq ushbu musobaqa "Hukumat kubogi" nomi bilan vazirlik va turli idoralarda faoliyat olib boradigan apparat xodimlari o'rtasida tashkil etildi. Maqsad – davlat idoralari xodimlarini faol tarzda sportga jalb etish va ularni ruhlantirishdan iborat.



Jami 33 nafar jamoa 5 kun davomida saralash bahslarida ishtirok etib, ulardan ikki nafari finalga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

P o y t a x t i m i z d a joylashgan "JAR" sport-sog'lomlashtirish kompleksida Mudofaa vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati jamoalari o'rtasida "Hukumat kubogi"ning final bosqichi bo'lib o'tdi.

Muxlislar olqishi ostida boshlangan bahslarni taniqli futbol sharhlovchisi Mirzahakim To'xtamirzayev olib bordi.

Teng kurashlar ostida kechgan o'yinning birinchi taymida jamoalar hisobni 1:1 ko'rinishida yakunlashgan bo'lsa, ikkinchi taymda jarima maydonchasidan kiritilgan to'p Davlat xavfsizlik xizmati jamoasini oldinga olib chiqdi. 2:1 hisobi bilan yakunlangan final bahslarida Mudofaa vazirligi jamoasi faxrli ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Taqdirlash marosimida jamoalarga homiylarning qimmatbaho sovg'alari topshirilgan ekan, mutaxassislar tomonidan Mudofaa vazirligi jamoasining o'yinchilari turli nominatsiyalar bo'yicha e'tirof etildi.

Shuningdek, futbol kechasiga taniqli san'atkorlarning musiqiy chiqishlari va shou sahnalari o'zgacha atmosfera baxsh etdi.

Katta leytenant Bobur ELMURODOV

Musobaqa oldidan

UCH BOSQICHLI

TAYYORGARLIK

Ommaviy axborot vositalari orqali deyarli har kuni yurtimiz sportchilarining nufuzli xalqaro musobaqalarda yuqori o'rinlarni egallab kelayotgani haqida xabar topmoqdamiz. Ular orasida, ayniqsa, Mudofaa vazirligi harbiy sportchilarining ham borligi kishini quvontiradi.



Muallif suratiga olgan

Jahon arenalarda sportchilarimiz sharafiga yurtimiz bayrog'i baland ko'tarilib, madhiyamiz yangrashini ko'rish zavqi etlarni junjiktirib yuborishi tabiiy. Biz bu kabi holatlarga ancha ko'nikib qoldik. Ammo har qanday natija ortida mashaqqatli mashg'ulot, metin iroda va qat'iy intizom turganligini barchamiz ham his qilavermaymiz.

Har yili 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni arafasida o'tkazilishi an'anaga aylangan kuch tuzilmalari o'rtasidagi qo'l jangi

musobaqasiga ham oz fursat qoldi. Shuni teran anglagan Mudofaa vazirligi terma jamoasi ham mashg'ulotlarni boshlab yubordi.

– Terma jamoa bilan o'quv-yig'in mashg'ulotlarini 3 bosqichda olib bormoqdamiz, – deydi murabbiy Abdurashid Rahimov. – Birinchi bosqich mashg'ulotlari yurtimizning tog'li hududlarida o'tkazildi. Qo'l jangi bo'yicha ringga ko'tariladigan sportchida, avvalo, ruhiy va jismoniy

ko'nikma hosil bo'lmas ekan, u ichki xotirjamlikni his qila olmaydi. Shuning uchun tabiatning tabiiy to'siqlaridan o'tishdek yuklamalarni bajardik. Navbatdagi bosqich jarayonlari esa Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazida davom etmoqda. Amaldagi chempion – Mudofaa vazirligi terma jamoasi uchun ushbu musobaqa ikki karra mas'uliyatli hisoblanadi. Biz nafaqat oliy o'rin, balki chempionlikni saqlab qolish uchun ham bor imkoniyatimiz bilan

kurashishimiz kerak. Asosiy e'tiborimiz terma jamoa vakillarining texnikasi, taktikasi va jismoniy tayyorgarliklariga qaratilgan.

Mashg'ulotlarda qanchalik qiyin bo'lsa, musobaqada shunchalik oson bo'lishini sportchilar yaxshi anglagan holda murabbiy tomonidan berilayotgan yuklamalarni kamchiliklarsiz bajarishga harakat qilishmoqda.

– Musobaqa jarayonida sportchi yo'l qo'yayotgan xatolarini murabbiylar tez anglaydi. Shuning uchun ham ular murabbiy. Sport yutqizish va yutuqlar mushtarakligi mujassam bo'lgan soha. Hech qachon, hech bir sportchi bir xil marrani zabt etib kelolmaydi. Qachon yutasan, qachondir yutqizasan. Bu yilgi mashg'ulotlar ham oldingi qilgan xatolarimizni to'g'rilash va yangi usullarni o'rganishdan boshlandi, – deydi kichik serjant Azamat Abdurahimov. – Yurtimizdagi kuch tuzilmalari o'rtasida o'tkazilayotgan musobaqa aslida do'stlik, tajriba almashish va pirovardida jahon arenalarda barchamiz birlashib, yurtimiz sharafini himoya qilish uchun zamin bo'lmoqda. Buning uchun musobaqa mutasaddilariga va safdoshlarimga o'z minnatdorchiligimni bildiraman. Qolaversa, bizning o'quv-yig'inimiz uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berayotgan Mudofaa vazirligi rahbariyatiga rahmat aytaman. Bunday imkoniyatlardan unumli foydalanib, yuqori natijalarni zabt etgan holda bildirilayotgan ishonchni oqlashga va'da beraman.

Sherzod SHARIPOV, «Vatanparvar»

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Buxoro viloyati kengashi tasarrufidagi Qorako'l tumani o'quv sport-texnika klubida xalq xo'jaligining turli tarmoqlari uchun "A", "B", "BC", "BE", "CE", "D" toifali haydovchi mutaxassislar tayyorlanmoqda. Joriy yilning o'tgan davri mobaynida bu borada belgilangan reja ortig'i bilan bajarishga erishildi.



QORAKO'LLIK MOTOKROSSCHILAR YUKSAK MARRANI KO'ZLAGAN

O'z navbatida malakali haydovchilar tayyorlash uchun tashkilotda yetarli darajada moddiy-o'quv baza yaratilgan. Barcha kerakli texnik qurilmalar, zamonaviy o'quv avtomobillari va boshqa mavjud imkoniyatlar bo'lajak haydovchilar malakasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda Qorako'l tumanida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning sog'lom va barkamol avlod bo'lib voyaga yetishlari uchun ko'plab tadbirlar amalga oshirilib, sportning texnik hamda amaliy turlarini keng ommalashtirishga va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

– Ayni paytda klubimiz qoshida faoliyat ko'rsatayotgan sportning texnik va amaliy turlari – "Motokross", "Yozgi biatlon" va "Karting" kabi seksiya hamda to'garaklarga 36 nafardan ziyod yosh jalb qilingan, –

deydi O'STK boshlig'i Jamil Ahmedov.

– Albatta, to'garak a'zolari bo'lgan sportchi yoshlarimiz nufuzli musobaqalarda ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Masalan, joriy yilning fevral oyida Surxondaryo viloyatida, mart oyida Navoiy shahrida motokross bo'yicha O'zbekiston birinchiligining 1- va 2-bosqich musobaqalarida ishtirok etgan qorako'llik sportchilar faxrli 1- va 2-o'rinlarni egallashdi. Shu yil 12-13-noyabr kunlari Olmaliq shahrida motokross bo'yicha mamlakat kubogi bosqichida ham qorako'llik sportchilar g'olib bo'ldi. Xuddi shu musobaqalarda ishtirok etgan motosportchilar – Jasur Samadov, Baxtiyor Ahmedov, Bekzod Xalimboyev, O'tkir Berdiyev, Mehriziyod Berdiyev, Zufarbek Bahodirov, Asadbek Rajabov singari sportchilar yuqori natijalarni egallashga munosib hissa

"Vatanparvar" tashkiloti Qorako'l tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi barcha hamkasblarini 23-noyabr – "Vatanparvar" tashkiloti kuni bilan muborakbod etadi.

Ezgu ishlaringizga omad, sihat-salomatlik, oilaviy totuvlik tilaymiz. Ilohim yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin!

qo'shdi. Albatta, egallanayotgan marralar yoshlarni yanada ruhlantirib, o'z mahoratlarini ustida ishlashi, shug'ullanishi hamda yuqori natijalarga erishishiga imkon yaratyapti.

Ayni paytda "Vatanparvar" tashkiloti tashkil etilganligining 31 yilligini munosib kutib olgan O'STK jamoasi yoshlarning sport turlarini mukammal egallashi yo'lida yanada

qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida barcha imkoniyatlarni ishga solmoqda. O'z navbatida qorako'llik motokrosschilar yuksak marrani ko'zlagan holda shu yilning 9-10-dekabr kunlari Toshkent shahrida o'tkaziladigan O'zbekiston chempionati "Super-motokross" musobaqalariga qizg'in hozirlik ko'rmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Buxoro viloyati kengashi tasarrufidagi Buxoro shahri o'quv sport-texnika klubi jamoasi tomonidan sog'lom fikrli, erkin dunyoqarashga ega yoshlarni tarbiyalash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

MUSOBAQAGA QIZIQISH ORTMOQDA



"Vatanparvar" tashkilotining 31 yilligi munosabati bilan "Vatanparvar – mening tanlovim!" shiori asosida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, davra suhbatlari hamda sport musobaqalari o'tkazilganligi shular jumlasidandir. Bundan tashqari, shu yilning 18-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilinganiga 31 yil to'lishi munosabati bilan "Muqaddasdir Vatan bayrog'i!" shiori ostida "Vatanparvar" avtokarvoni ham tashkil etildi. Bunday tadbirlar yoshlarning qalbida ona yurtga muhabbat, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Bu esa o'z navbatida ularning kamolotida muhim o'ringa ega.

– Ayni paytda shahar klubimizda "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" hamda "Raketamodel" kabi seksiyalar faoliyat ko'rsatmoqda, – deydi o'quv sport-texnika klubi boshlig'i Feruz Norov. – Bu to'garaklarga 60 nafarga yaqin yosh jalb etilgan. To'garak a'zolari viloyat va respublika musobaqalarida faol ishtirok etib, yuqori o'rinlarni egallamoqda.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunga kelib, malakali haydovchilar tayyorlash sifatini oshirish, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish borasida ham tashkilotda katta tajriba to'plangan. O'STK jamoasi tarkibida tajribali, bilimdon, o'z ishining mohir o'qituvchilari hamda amaliy boshqarishni o'rgatuvchi ustalar talaygina. Albatta, o'z kasbining

haqiqiy ustalaridan ta'lim-tarbiya olgan shogirdlarning bilimi va malakasi yuqori bo'lishi, shubhasiz.

O'quv xonalarining zamon talablari asosida ta'mirlanganligi va sport-texnika, o'quv avtomobili jihozlari hamda ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha ko'rgazmalar bilan jihozlanganligi ham bu borada qulay imkoniyat yaratmoqda. Shu kunlarda O'STKda "B", "BC", "C" toifali haydovchi mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Takidlash o'rinliki, bugungi kunga kelib, O'STKda yoshlarni ma'nan va jismonan tayyorlash, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, harbiy-vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qilish maqsadida Buxoro shahridagi umumta'lim maktablari o'rtasida sport musobaqalari tashkil

"Vatanparvar" tashkiloti Buxoro shahri o'quv sport-texnika klubi jamoasi barcha vatanparvarchilarni, tashkilot a'zolarini va mehnat faxriylarini 23-noyabr – "Vatanparvar" tashkiloti kuni bilan samimiy tabriklaydi.

Yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdek ezgu ishlaringizga ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!

etilmoqda. O'z navbatida sportning texnik va amaliy turlariga o'quvchi-yoshlar orasida qiziqish katta. Buning isbotini bellashuvlarda qatnashuvchi – sportchi yoshlarning safi yil sayin kengayib borayotganligida ham ko'rish mumkin.

BOLANI QANDAY QILIB IJODKOR, ERKIN SHAXS SIFATIDA ULG'AYTIRISH MUMKIN?

AYOLLAR BEKATI

Bola mustaqil ravishda qaror qabul qilishni o'rgana boshlagachgina o'zini anglay boshlaydi. Agar ota-ona hayotga bo'lgan qarashlarini bolaga singdira boshlasa, u birovga tobe, o'z mustaqil fikriga ega bo'lmagan shaxsga aylana boshlaydi. Agar

bola tazyiqlarsiz ulg'aysa, o'z hayotining ijodkoriga aylanib boradi. Zero, ota-onaning vazifasi – bolaga o'z fikrini singdirish, uqtirish emas, bolasidagi qobiliyat va qiziqishlarni sezib, shuni rivojlantirishga zamin yaratish.

Hayotini o'z qiziqishlari asosida qurgan bolagina kelajakda baxtli yashashi mumkin. Agar u bolaligida sport, san'at yoki ilm-fan bo'yicha mashg'ulotlarga borgan bo'lsa, keyinchalik o'shalarning ichidan ko'ngliga yoqqan mashg'uloti orqali "o'zligini", "men"ini topishi mumkin. Aks



holda, bu ham muammo bo'lishi mumkin. Shuning uchun farzandning kelajakda barkamol inson bo'lib ulg'ayishini istagan ota-ona uni bolaligidan turli xil mashg'ulotlarga, sport to'garaklariga jalb qilish lozim. Shundagina u o'z orzulariga intilishni, fikrlarini erkin bayon etishni o'rganadi.



Onalar uchun eslatma!

Doim yodingizda bo'lsin, siz qanchalik farzandingizga chegara qo'ysangiz, u kelajakda o'zi uchun shuncha taqiq yaratadi. Bulardan ijodkor, erkin shaxs chiqmaydi, sizning soyangizda yuradi. Bunga aslo yo'l qo'ymang!

Kasalliklarni davolashda limonli ajoyib retsept!

Bronxitni davolashda 1 dona piyoz, 7 osh qoshiq asal, 1 dona limon kerak bo'ladi. Piyozlarni maydalab to'g'rang yoki qirg'ichdan o'tkazing va asal bilan yaxshilab aralashtiring. Keyin limonni go'sht qiymalagichdan o'tkazib, aralashmaga qo'shing. Kuniga 3-4 mahal 2-3 osh qoshiqdan iste'mol qilasiz. Muolaja muddati 10–14 kun.

Laringitni davolashda kichikroq limonning suvini siqib, 3 osh qoshiq asalga aralashtirasiz va yarim litr qaynagan suvga solasiz. Har 3-4 soatda g'arg'ara qilib turasiz.

Zotiljam, ya'ni pnevmoniyada 4 bosh sarimsoq qirg'ichdan o'tkaziladi, bitta limon go'sht qiymalagichdan chiqariladi va 8 osh qoshiq asal bilan aralashtiriladi. 7–10 kun davomida ertalablari 1 choy qoshiqdan iste'mol qilinadi.



Angina boshlanayotganda yarimta limon yeyish foydali. Qolgan yarmini 2-3 soatdan keyin yeyish mumkin. Limonning suvini siqib, mineral suvga 1:1 nisbatda aralashtirib ichish mumkin.

Diqqat, tanlov!

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining
31 yilligiga bag'ishlanadi“VATAN BILAN ULG'AYAR
SHON-SHAVKATIMIZ”

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 31 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan “Vatanparvar” gazetasi va “O'zbekiston armiyasi” jurnali o'quvchilari, harbiy xizmatchilar, jurnalist va ijodkorlar o'rtasida milliy armiyamiz qo'shinlarining harbiy qudrati, jangovar saflarda xizmat qilayotgan Vatan

himoyachilarining fidoyiligi, jasorati va qahramonliklari, ulug' ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosni keng targ'ib qilish, xizmat vazifasini bajarish chog'ida qahramonlarcha halok bo'lgan yigitlar xotirasini abadiylashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning yuksak ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik sifatlarini oshirish, Vatan taqdiri va

mustaqilligi uchun mas'uliyat hissini, fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, ular qalbida Vatanga muhabbat, Qurolli Kuchlardan g'ururlanish va harbiy xizmatga chuqur hurmat tuyg'ularini kamol toptirish maqsadida “Vatanparvar” birlashgan tahririyati “Vatan bilan ulg'ayar shon-shavkatimiz” deb nomlangan publitsistik maqolalar tanlovini e'lon qildi.

TANLOV SHARTLARI

Tanlovga taqdim etilgan ijodiy ishlar 2022-yilning 24-dekabrigacha (*Word shaklida*) “Vatanparvar” birlashgan tahririyatiga yo'llanishi lozim.

Manzil:
100164, Toshkent,
Universitet ko'chasi, 1-uy.
Elektron manzil:
vatanparvar-bt@umail.uz yoki
telegram manzili:
(90) 968-62-08

QUYIDAGI HUJJATLAR ILOVA
QILINISHI LOZIM:

– muallif pasporti (*shaxsini tasdiqlovchi hujjat*) nusxasi;
– muallifning manzili va bog'lanish telefonlari;
– muallifning xizmat (*ish*) joyi.

Eng sara ijodiy ishlar “Vatanparvar” gazetasi sahifalarida “Vatan bilan ulg'ayar shon-shavkatimiz” tanlovi rukni ostida chop etiladi.

G'OLIBLARNI MUKOFOTLASH

Tanlov g'oliblari quyidagi mukofotlar bilan taqdirlanadi:
– 1-o'rin (1 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 20 (*yigirma*) barobari, diplom;
– 2-o'rin (2 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 15 (*o'n besh*) barobari, diplom;

– 3-o'rin (3 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 10 (*o'n*) barobari, diplom;

– rag'batlantiruvchi mukofotlar (4 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 6 (*olti*) barobari, diplom.

Tanlov natijalari “Vatanparvar” gazetasi va saytida hamda mudofaa.uz saytining telegram kanalida e'lon qilinadi.

Tanlov g'oliblari va sovrindorlariga mukofotlar 2023-yil Vatan himoyachilari kuni bayrami arafasida tantanali ravishda topshiriladi.

TAHRIRIYAT

HIKMAT

O'g'rilar orasida eng zararlisi ahmoqlardir. Ular bir vaqtning o'zida vaqtimizni va kayfiyatimizni o'g'irlyaydi.

Kimniki tushunsang, o'shanga tengsan.

GYOTE

HIKOYAT

SALLAGA O'XSHAR

So'filardan biri xalqning o'ziga e'tibor bermog'i uchun boshidagi sallani ulkan qilib o'radi; ichini bo'z bo'laklari bilan to'ldirdi. Tabiiyki, bu haybatli sallani ko'rganlar, ichida ancha gazlama bo'lsa kerak, deb o'ylardilar.

So'fi bir kun madrasaga ketayotganda o'g'ri sallani olib qochdi. So'fi ortidan baqirdi:

– Sallani och, sallani och. Ichidagini ko'rginda, keyin olib ket.

O'g'ri qocharkan, qo'ltig'idagi sallani yecha boshladi. Qarasa, sallaning ichi bo'z va teri parchalari, paxta bo'laklari bilan to'la. Oxiri, qo'lida faqat bir quloq bo'z qoldi, xolos. Qo'lidagini yerga urdi:

– Oh, pastkash odam. Men bu haybatli sallada bir narsalar bor, deb o'ylagandim. Sening hiylang meni rasvo qildi, – deya hayqirdi. Bu so'zlarni eshitgan so'fi:

– O'g'lim, dunyo mana shunaqadir. Mening sallam kabi yaxshi ko'rinadi, ammo so'ngida vafosizligini ko'rsatadi, besh pulga arzimaydi, eski-tuski bo'laklarga aylanadi, – dedi.

Jaloliddin RUMIYNING “Masnaviy”sidan

OBUNA – 2023

«Vatanparvar» gazetasi nashr ko'rsatkichi – 114

«O'zbekiston armiyasi» jurnali nashr ko'rsatkichi – 1 273

– Men
«Vatanparvar»ni
tanladim.
Siz-chi?

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

polkovnik Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar
taqriz qilinmaydi va mualliflarga
qaytarilmaydi.

Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar departamenti
– “Vatanparvar” birlashgan
tahririyatining kompyuter markazida
sahifalandi.

Bosh muharrir vazifasini

vaqtincha bajaruvchi:
podpolkovnik To'liq Jumanazarov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida 2008-yil
6-iyunda 0535 raqami bilan
ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: leytenant Islomjon Qo'chqorov

Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: Г-1105

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 29 559 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani
rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq
boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“Sharq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:

100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya